

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMINI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

J.O. TOLIPOVA, A.T. G'OFUROV

# BIOLOGIYA O'QITISH METODIKASI

akademik litsey va kasb-hunar kollejlari biologiya  
o'qituvchilari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma

## T a q r i z c h i l a r:

1-ToshMI qoshidagi akademik litseyning biologiya o'qituvchisi, biologiya fanlari nomzodi Z.N. Usmonova.

Nizomiy nomidagi TDPU qoshidagi akademik litsey biologiya o'qituvchisi N. Yusupova.

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining biologiya o'qituvchilari, shuningdek, pedagogika oliy o'quv yurti talabalari va magistrantlariga mo'ljallangan bo'lib, unda biologiyani o'qitishning umumiyligi masalalari, biologik ta'lim mazmunining tarkibiy qismlari va ularni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish usullari, ta'lim mazmuni, vositalari, metodlari va shakllarining uzviyligi, o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish, biologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llari ishlab chiqilgan.

Biologiyani o'qitishda o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish, boshqarish va faollashtirish, tabaqalashtirilgan ta'lim, mustaqil va ijodiy izlanishlarni tashkil etish, bilim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlari va mustaqilligini oshirish yo'llari mualliflarning diqqat markazida bo'lgan.

$$T \frac{1901000000 - 112}{M 361(04) - 2004} - 2004$$

© «Bilim» nashriyoti, 2004-y.  
O'MKHTM, 2004-y.

## SO'ZBOSHI

Respublikada qabul qilingan «Ta'lif to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quvchilarni muayyan bilimlarni egallashlari barobarida, ularda maxsus kasb-hunar ko'nikmalarini shakllantirish, bilim olishga bo'lgan ehtiyoji, mustaqil va ijodiy fikrlash, amaliy tajriba va mehnat ko'nikmalarini, tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, atrof-muhitga ongli munosabatni tarkib toptirish ko'zda tutilgan. Shuningdek, o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning va ta'lif-tarbiya ishlarining samarali shakllari va usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish qayd etilgan.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining amaldagi ikkinchi bosqichida ta'lif-tarbiya jarayonini sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash zarur vazifalardan biri deb belgilangan.

Yuqorida qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qitiladigan barcha umumta'lim o'quv fanlari qatori biologiya o'quv kursiga ham taalluqli. Shuni e'tiborga olgan holda biologiyani o'qitish masalalariga bag'ishlangan o'quv-metodik qo'llanmaning yangi avlodni yaratildi.

Ushbu o'quv-metodik qo'llanmani yaratishda respublikamizda qabul qilingan «Uzluksiz ta'lif tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish Konsepsiysi»<sup>1</sup>ga asoslanildi. Jumladan, metodik qo'llanma o'quv qo'llanmalarining bir turi ekanligini hisobga olgan holda umumiyligida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv adabiyotlari qo'yiladigan o'ziga xos talablarga amal qilindi.

O'quv-metodik qo'llanmada biologik ta'lif jarayonida hamkorlik pedagogikasiga asoslanish, har bir darsda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlashni

<sup>1</sup> Uzluksiz ta'lif tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish Konsepsiysi. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahriri. T.: 2002-y.

rivojlantirish, ularda ma'naviy-axloqiy fazilatlar, vatanparvarlik va milliy g'ururni shakllantirish, o'quvchilarni Ona-Vatan va mustaqillik prinsiplariga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, hamda tabiatga ongli munosabatni tarkib toptirish masalalariga e'tibor qaratildi.

O'quv-uslubiy qo'llanma ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida biologiyani o'qitishning umumiy masalalari, ikkinchi qismida biologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llari yoritilgan.

## I QISM

### O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MUASSASALARIDA BIOLOGIYANI O'QITISHNING UMUMIY MASALALARI

#### BIOLOGIK TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi, jahon hamjamiyatiga yuz tutishi, rivojlangan mamlakatlar bilan iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, diplomatik aloqalarning yo'lga qo'yilishi barcha jabhalar kabi ta'lif tizimini isloh qilishni talab etdi.

Shu sababli O'zbekiston Respublikasining «Ta'lif to'g'risida»gi Qonunida ta'lif mamlakatimizning ijtimoiy taraqqiyot sohasida ustuvor yo'nalish deb e'lon qilingan.

Mazkur hujjatda mamlakatimizning ta'lif sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari etib, jumladan, quyidagilar qayd etilgan:

- ta'lif va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta'lif uzlusizligi va izchilligi;
- ta'lif tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta'lif standartlari doirasida ta'lif olishning hamma uchun ochiqligi;

- ta'lif dasturlarini tanlashga yagona va tabaqlashtirilgan yondoshuv;

- bilimli bo'lish va iste'dodni rag'batlantirish;

- ta'lif tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish;

Ma'lumki, mamlakatimizning ta'lif sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari uzviy ravishda uzlusiz ta'lif tizimining faoliyat ko'rsatish prinsiplariga bevosita ta'sir ko'rsatadi va ularni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da ta'lif tizimini tubdan isloh qilish, zamon talablari asosida qayta qurish, uzlusiz ta'lif tizimining turlari, ta'lif muassasalari oldidagi vazifalar, kadrlar tayyorlash milliy modelini amaliyotga tatbiq etish masalalari bilan bir qatorda uzlusiz ta'lif tizimining quyidagi faoliyat ko'rsatish prinsiplari qayd etilgan.

1. Ta'lifning ustuvorligi — ta'lif-tarbiya jarayonining samarali tashkil etilishi va rivojlantirilishi jamiyatimizdagi ustuvor yo'nalish sanaladi. Ta'lifning ustuvorligi yuksak ma'naviyatlari, bilimli va salohiyatlari barkamol

shaxsning shakllanishiga zamin yaratadi.

2. Ta'limning demokratlashuvi — ta'lim va tarbiya uslublarini tanlashda, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarishda ustoz va tahsil oluvchining hamkorligiga asoslanadi.

3. Ta'limning insonparvarlashuvi — inson qobiliyatlarini to'liq ochilishi va bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarning qondirilishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhitning o'zaro munosabatlarini uyg'unlashtirishga asoslanadi.

4. Ta'limning ijtimoiylashuvi — ta'lim oluvchilarda ongli intizom, insoniy qadr-qiyomat tuyg'usi, yuksak ma'naviyat, ijtimoiy normalarga asoslangan xulq-atvor, estetik boy dunyoqarash, mantiqiy va ijodiy fikrlashni tarkib toptirish nazarda tutiladi.

5. Ta'limning milliy yo'naltirilganligi — ta'limning milliy tariximiz, xalq an'analari va urf-odatlari bilan uzviy uyg'unligi, O'zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotning o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlashni ta'minlaydi.

6. Ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishni nazarda tutadi.

7. Iqtidorli yoshlarni aniqlash — ta'lim jarayonini differensiallashtirish va individuallashtirish, iqtidorli yoshlarga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratishni ko'zda tutadi.

Respublikamizda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlarning muvaffaqiyati uzlusiz ta'lim tizimining barcha turlarida ta'lim-tarbiya jarayoni tashkil etiladigan o'qitish prinsiplari ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari va uzlusiz ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatish prinsiplariga qanchalik mos kelishi va ularni amaliyotga joriy etishga safarbar etilganligiga bog'liq.

Ma'lumki, o'qitish prinsiplari — o'qitish tizimining tuzilishi, mohiyati, uning qonunlari va qonuniyatları haqidagi, shuningdek, faoliyatni tashkil etadigan, amaliyotni boshqarishda namoyon bo'ladigan bilimlar majmuasi sanaladi.

Respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlar biologik ta'lim jarayonida ilmiylik, ta'lim va tarbiyaning uzviyligi sistemalilik, fundamentallik, izchillik, ko'rgazmalilik, onglilik, mustaqillik, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning metodologik prinsipi, nazariyani amaliyot bilan bog'lash, samaradorlik, tushunarлilik, individual va guruhli yondashishni uyg'unlashtirish, mantiqiy ketma-ketlik bilan bir qatorda, ta'limni demokratlashtirish va insonparvarlashtirish kabi prinsiplarga ham amal qilinishi zarurligini ko'rsatdi.

Ta'lism-tarbiya jarayoniga qo'yilgan buyurtmalarni bajarish uchun avvalo ta'lim jarayonini differensiallashtirish va individuallashtirish, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratizatsiyalash, ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondoshuvni talab etadi.

Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratizatsiyalash prinsipi o'zida falsafa, psixologiya va pedagogikaning insonparvarlik g'oyalarini mujassamlashtiradi. Ushbu prinsip diqqat markazida o'z imkoniyatlarini maksimal darajada amaliyotga qo'llaydigan, ijodiy va ijtimoiy faol, turli hayotiy vaziyatlarni anglab, tahlil qiladigan, mo'ljalni ongli ravishda mustaqil, to'g'ri ola oladigan shaxsni shakllantirish g'oyasi turadi.

Mazkur prinsiplarning asosiy jihatni har bir shaxsda mavjud bo'lgan uning ehtiyoji, qiziqishi, iqtidori va imkoniyatlari asosida ijobjiy fazilat va xislatlarni shakllantirish va rivojlantirish sanaladi. Shu sababli ta'lim mazmuni insonparvarlikka yo'naltirilgan gumanistik g'oya va me'yorlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi lozim.

Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratizatsiyalash prinsipi orqali pedagogik jarayonda hamkorlik, g'amxo'rlikning vujudga kelishi, o'quvchilar shaxsini hurmat qilish va e'zozlash orqali shaxsning tahsil olishi, ijod qilish va o'z-o'zini rivojlantirishiga qulay ijtimoiy va psixologik muhit yaratiladi. Mazkur jarayonda o'quvchi o'z o'quv faoliyatining subyekti sanaladi va o'qituvchi bilan yagona ta'lim jarayonining ikkita subyekti hamkorlikda o'quv-tarbiyaviy vazifalarni hal etadi.

Pedagogning o'quvchi shaxsiga bo'lgan insonparvarlashtirilgan munosabati bolalarni sevish, ularning taqdiri uchun qayg'urishi, bolalarga bo'lgan ishonchning yuqoriligi, o'zaro hamkorlikning vujudga kelishi, muloqot madaniyatining yuqori darajada bo'lishi, o'quvchilarni to'g'ridan-to'g'ri majburlashdan voz kechish va aksincha ijobjiy rag'batlantirishning ustunligi tufayli ta'lim jarayonidan ko'zlangan maqsadga erishish, bolalar faoliyatida uchraydigan kamchiliklarga chidamli bo'lish, ularni bartaraf etishning eng samarali yo'llarini qo'llashda namoyon bo'ladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini demokratizatsiyalash o'qituvchi o'quvchilarning fuqarolik huquqlarini tenglashtirish, o'quvchilarga tanlash huquqining berilishi, o'z fikri va nuqtayi nazarini erkin bayon etish, ular bu borada xatoga yo'l qo'yishi mumkinligi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va bolalar huquqlari Konvensiyasiga amal qilinishini taqozo etadi.

Respublikamizda rivojlangan huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyatni qurish tamoyillari uzluksiz ta'lim tizimining barcha turlarida ta'lim-tarbiya jarayonini demokratizatsiyalash va insonparvarlashtirishni talab etadi.

Demokratizatsiyalash ta'lif tizimidagi formalizm, byurokratizmni yo'qotib pedagogik hamkorlikni yuzaga keltiradi.

Hamkorlik — tahsil oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatini takomillashtirish, ularni ma'naviy, axloqiy, intellektual jihatdan rivojlantirish, bu jarayonni bir-biriga uyg'unlashtirish, faoliyatning natijasi va borishini hamjihatlikda tahlil qilish imkonini beradi.

Demokratlashtirilgan jarayonni insonparvarlashtirish o'quv-tarbiyaviy jarayonining maqsadini amalga oshirish, tahsil oluvchilarning o'quv-bilish va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, o'quv mehnatining xarakteri va mazmunini o'zgartiradi va shaxsning uyg'unlikda rivojlanishiga qulay psixologik muhit yaratadi.

O'quvchilarning fan asoslarini egallahsga bo'lgan qiziqishini orttirish va bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, ta'lif-tarbiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini ta'minlash, inson, jamiat va atrof-muhitning o'zaro munosabatlarini uyg'unlashtirish, ta'lif oluvchilarda ongli intizom, insoniy qadr-qiyomat tuyg'usi, yuksak ma'naviyat, ijtimoiy normalarga asoslangan xulq-atvor, estetik boy dunyoqarash, mantiqiy va ijodiy fikrleshni tarkib toptirish maqsadida biologiyani o'qitishga yangicha yondoshildi.

Yangi yondoshuvning asosiy mohiyati, an'anaviy ta'lifda ko'zda utilgan natijalarini bermayotgan majburan o'qitishdan voz kechish va uning o'rninga:

- zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali ta'lif jarayonini samarali tashkil etish;

- mustaqil ish va mustaqil faoliyatni amalga oshirish;

- tegishli talablarni jamoa orqali qo'llashni amalga oshirish muhim sanaladi.

Yangi munosabatlarning vujudga kelishi shaxsga tafovutlab yondoshishni ya'ni ta'lif jarayonini differensiallashtirish va individualallashtirish prinsipini talab etadi. Mazkur prinsiplar asosida ta'lif jarayonini tashkil etishda:

- o'rta saviyali o'quvchiga nisbatan mo'jal olishdan voz kechish;

- har bir shaxsning eng yaxshi sifatlarini aniqlash va uni rivojlantirish, qiziqishi, ehtiyoji, qobiliyati, yo'nalishi, sifatlari, aqliy jarayonining xususiyatlarini aniqlash;

- har bir o'quvchining ehtiyoji, qiziqishi, iqtidori va imkoniyatiga yarasha o'quv topshiriqlarini tayyorlash;

- ta'lif-tarbiya jarayonlarida shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish lozim bo'ladi.

Ta'limi differensiallashtirish va individualallashtirish o'qitish jarayonida individual va guruhli yondoshish prinsipini talab etadi.

O'qitish prinsiplari negizida o'qitish qonunlari va qonuniyatlarini yotadi.

O'qitish qonunlari va qonuniyatlarini o'qitish prinsipining nazariy asoslarini ishlab chiqishga va pedagogik faoliyat amaliyotiga qo'llashga zamin tayyorlaydi.

Shuni qayd etish lozimki, o'qitish qonunlari va qonuniyatlarini uzluksiz ta'lim tizimining oldiga qo'yilgan davlat va ijtimoiy buyurtmalar, jamiyatning ijtimoiy hayotidagi ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlar, ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadi va vazifalari, fanning rivojlanish darajasiga bevosita bog'liq holda o'zgarib, yangilanib turadi.

O'qitish prinsiplari avvalo muayyan davlatning ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari, uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatish prinsiplari, so'ngra ta'lim tizimi oldidagi buyurtmalariga mos kelishi, shuningdek, jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlarni o'zida aks ettirib yangilanib, o'zgarib, rivojlanib, o'zgacha ahamiyat kasb etadigan jarayondir.

#### TA'LIMNI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANТИRISH PRINSIPLARI VA O'QITISH PRINSIPLARI O'RTASIDAGI UZVIYLIK

1-jadval

TA'LIM SOHAS IDA GI DA VLAT SIYOSA TI NING ASOSIY PRIN SIPPLARI (saylanma)	UZLUKSIZ TA'LIMNI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANТИRISH PRINSIPLARI	O'QITISH PRINSIPLARI
1. Ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi.	Ta'limning demokratikas huvi, ta'limning insonparvarlas huvi, ta'limning ustuvorligi, ta'limning ijtimoiyalashivi, milliy yo'nalitirilganligi, ta'lim va tarbiyaning uzvliy bog'liqligi, iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sheitoitlar yaratish.	Ta'lim jarayonini demokratishitish va insonparvarlashtirish, ilmiylik sistematilik, fundamentallik, ko'rgazmalilik, samaradorlik, tushunarlik, onglik, mustaqillik, nazariya bilan amaliyotning birligi, mantiqiy ketma-ketlik, ta'lim va tarbiyaning uzviliyi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning metodologik prinsipi, ta'limni differensiallashitish va individuallashtirish, individual va guruhlarda o'qitishni uyg'unlashtirish, o'qitish maqsadi, mazmun, vositalari va shakllarining ijtimoiy muhitiga bog'liqligi, o'qitish maqsadi vositalari va natijalar birligi, baholash va o'z-dzini baholash prinsipi.
2. Ta'limning uzluksizligi va izchilligi.		
3. Ta'lim tizimining dunyoviy xarakterdalini.		
4. Ta'lim dasturini tanlashiga yagona va tabaqalashtirilgan yordashuv.		
5. Bilimli borishni va istedodni rag'bat-lantirish.		

O'qitish prinsiplari ta'lim-tarbiya jarayonining yo'nalishi va pedagogik faoliyatning mazmunini belgilaydi.

O'qitish prinsipi — didaktik kategoriya bo'lib, u ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadi va vazifalariga bog'liq holda o'qitish qonunlari va qonuniyatlarining amaliyotga qo'llanish usulini belgilaydi.

Agar o'qitish prinsiplari o'qituvchi va tahsil oluvchilarning hamkorlikda o'qitish maqsadlariga erishish yo'nalishini belgilasa, o'qitish qonunlari pedagogik jarayonning xarakterini o'zida aks ettiradi.

Barcha jabhalarda qonunlarning maqsadi va istiqboldagi ko'zlangan natijasi bo'lgani kabi o'qitish qonunlari ham metodika fanining mantiqiy tarkibiy qismi sanalib, pedagogik jarayonning obyektiv, tashqi, ichki, muayyan va nisbiy bog'lanishlarini aks ettirib, ta'lif-tarbiya jarayonining mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarining uzviyligini, mazkur jarayonning ilmiy asosda tashkil etilishi va boshqarilishi, olinajak natijalar va samaradorlikni orttirish yo'llarini belgilaydi.

Respublikamizda ta'lif jarayonini isloh qilish va uzlusiz ta'lif tizimni joriy etishning ilmiy nazariy asosi sanalgan «Kadrlar tayyorlash milliy dastur»ning ta'lif sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqlardan to'la halos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'nnaviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratish kabi maqsadni amalga oshirish maqsadida, shuningdek, uzlusiz ta'lif tizimi oldidagi davlat va ijtimoiy buyurtmalari, o'qitish prinsiplari hisobga olingan holda biologiyani o'qitishda quyidagi o'qitish qonuniyatlarini pedagogik amaliyotga qo'llash maqsadga muvofiq deb topildi.

1. O'qitish maqsadi, mazmuni, vositalari va shakllarining ijtimoiy muhitga bog'liqligi qonuni. Mazkur qonuniyat ta'lif-tarbiya jarayonining tarkibiy qismlarini tanlash va shakllantirishda jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'nnaviy-ma'rifiy o'zgarishlar, ijtimoiy munosabatlarning ta'sirini o'zida aks ettiradi. Mazkur qonuniyat ta'lif oluvchilarda yuksak ma'nnaviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirishga imkon beradi. Keyingi yillarda yuqorida qayd etilgan fikrlar, o'qitish maqsadi va vazifalari hisobga olingan holda ta'lif mazmuni yangilandi, ta'lif tizimi jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslandi. O'quv fanlari bo'yicha davlat ta'lif standartlari, o'quv dasturlari, darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalarning yangi avlodni yaratildi.

2. Tarbiyalovchi va rivojlanuvchi ta'lif qonuniyati shaxsning tahsil olishi jarayoni, bilim, faoliyat usullarini o'zlashtirishi uning rivojlanishiga va shaxsiy sifatlarining shakllanishiga asoslanadi. Ushbu qonuniyat har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga imkon beradi. Kadrlar tayyorlashning milliy modelida shaxs muhim o'r'in tutadi va uzlusiz ta'lif tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs fuqaroni shakllantirish nazarda tutiladi.

3. Ta'lif-tarbiya jarayonining tahsil oluvchilarning faoliyati xarakteriga bog'liqligi qonuni. Ta'lif-tarbiya jarayonini tashkil etish usuli va olinajak natija, pedagogik boshqarish va tahsil oluvchilarning faolligini orttirish

o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni aks ettiradi.

Mazkur qonun «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» talablari asosida ta'lif-tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash, shu asosda zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarni yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlashni, o'quvchilarning qobiliyatları va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqlashtirilgan yondashuvni joriy etish, o'quvchilarni o'z o'quv-bilish faoliyatining to'laqonli sub'ektiga aylantirishni ko'zda tutadi.

4. O'quv faoliyatini individuallashtirish va guruhli o'qitishni tashkil etish birligi va o'zaro bog'liqligi qonuni. O'qitish jarayonining maqsadi va vazifasiga muvofiq tahsil oluvchilarning barchasi, shu jumladan har bir shaxsnинг tahsil olishga bo'lgan ehtiyojini qondirish, qiziqishini orttirishga asoslanadi. Bu qonuniyat ta'lif jarayonini tabaqlashtirish asnosida iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularning ehtiyoji va qiziqishiga yarasha bilim olishlariga imkon yaratadi.

5. O'qitishda nazariya va amaliyotning birligi va uzviy bog'liqligi qonuni. Tahsil oluvchilarning o'qitish jarayonida bilimlar, tushunchalar, g'oyalar, qonunlar nazariyalarni ongli va mustahkam o'zlashtirishiga erishish, ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga asoslanadi. Ushbu qonuniyat fan, texnika, ishlab chiqarish va amaliy tajribalarning o'quv jarayoni bilan integrasiyasini, uyg'unligini amalga oshirishga imkon beradi. Mazkur qonun Kadrlar tayyorlash milliy dasturining yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikkha, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish kabi vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

6. Pedagogik jarayon birligi va yaxlitligi qonuni. Pedagogik jarayonning yaxlit va tarkibiy qismlari o'rtasidagi uzviy bog'lanishlarni, shuningdek, ta'lif jarayonining mazmuni, vositalari, metodlari, shakllari, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining o'qitish maqsadlari bilan uyg'un ravishda bog'liqligini ta'minlaydi.

Yuqorida fikrlar hisobga olingan holda o'qitish tizimi davlat va ijtimoiy buyurtmalarga muvofiq maqsadlarni, ta'lif mazmuni, pedagogik muloqot vositalari (o'qitish vositalari, metodlari va shakllari), o'qituvchi va o'quvchilar faoliyati shakllari, o'quv-bilish jarayonini tashkil etish va nazorat qilishni o'z ichiga oladi.

O'qitish jarayonining modeli 2-jadvalda berilgan.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida biologiyadan tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayoni quyidagi maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi:

Ta'limiy maqsadi: — o'quvchilarning fan asoslarini, muayyan darajadagi, bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi, aqliy, axloqiy, ruhiy, ma'naviy rivojlanishi, amaliy va mehnat ko'nikmalarini egallashi, mehnat va kasb ta'limi bo'yicha dastlabki ko'nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsadi: — yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, keng ilmiy dunyoqarashi, ijodiy va ijtimoiy faol bo'lgan, milliy va umuminsoniy qadriyatlargacha hurmat, milliy istiqlol prinsiplari, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalangan, har tomonlama rivojlangan barkamol shaxsni shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsadi: — o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashi, tafakkuri, ma'naviy-axloqiy sifatlari, bilimlarni o'zlashtirish usullari, amaliy, mustaqil va ijodiy fikr yuritish, mehnat va o'quv ko'nikmalari, nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirish sanaladi.

Ta'limning bosh maqsadi har tomonlama kamol topgan, jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy moslashgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va puxta o'zlashtirgan, jamiyat, davlat va oila oldidagi o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalash hisoblanadi.

#### O'QITISH JARAYONINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI


O'qitish jarayonining samaradorligini oshirishda quyidagilar e'tiborga olinishi lozim:

— o'qitish jarayonining maqsadiga erishish uchun uning mazmuniga mos holda, vosita, metod va shakllarini tanlash. Ularning tahsil oluvchilarning motivi, ehtiyoji, qiziqishiga uyg'unligi.

— o'qitish jarayonini loyihalash, o'qitish mazmuni va maqsadga erishish vositalarini tanlash, o'quv materialini turli usullar yordamida yetkazish va ongli o'zlashtirishga erishish.

O'QITISH JARAYONINING MODELI

2-jadval



— tahsil oluvchilarning o'quv operatsiyalarini bajarish, o'qituvchi va tahsil oluvchilarning o'quv ishlari (o'quv materialini yuqori darajada o'zlashtirish uchun o'quvchilar faoliyati)ni samarali tashkil etish.

— o'qitish jarayonida teskari aloqani tashkil etish, nazorat va o'quv materialini o'zlashtirish jarayoniga tegishli o'zgartirishlar kiritish va o'z'ini nazoratni amalga oshirish.

— tahlil va o'z-o'zini tahlil qilish, o'qitish natijasini baholash.

— darsni, o'qitishning boshqa shakllari (darsdan, sinfdan, maktabdan tashqari ishlar, ekskursiyalar) bilan uyg'unlikda tashkil etish.

#### O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA O'QITUVCHI FAOLIYATI

Samaradorlikni oshirishda o'qitish jarayonining tashkilotchisi va boshqaruvchisi bo'lgan o'qituvchi faoliyati muhim rol o'ynaydi.

O'qituvchining faoliyati yosh avlodning aqliy, axloqiy, ruhiy, jismoniy qobiliyatlarini uyg'un ravishda rivojlantirish maqsadida ta'lim mazmu-

niga binoan ularning o'quv-bilish faoliyatini tashkil qilish va boshqarish sanaladi.

Ushbu faoliyat quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

— o'quv materialini tanlash, sistemaga solish, mantiqiy ketma-ketlikda loyihalash;

— tahsil oluvchilarning o'quv materialini qabul qilish, anglash va ongli o'zlashtirish imkonini beradigan o'qitish vositalari, metodlari va shakllarini tanlash;

— pedagogik jarayonni yahlit holda har bir tahsil oluvchilarning o'qitish maqsadlariga muvofiq o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish, ularning bilimlar tizimi va bilimlarni o'zlashtirish usullarini egallashlariga erishish;

— o'zining va tahsil oluvchilarning mashg'ulot davomidagi faoliyatini rejalashtirish;

— tahsil oluvchilarning bilimlar va ko'nikmalarni o'zlashtirish usullarini egallahsha qaratilgan ongli va faol faoliyatini tashkil etish va rag'batlantirish metodlarini belgilash;

— tahsil oluvchilar tomonidan o'quv topshiriqlarini bajarilish sifatini orttirish yo'llarini belgilash;

— nazorat, o'qitish natijalarini tahlil qilish va tahsil oluvchilar shaxsini rivojlanтирish bo'yicha kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlarni belgilash;

— o'qitish jarayonining natijasiga muvofiq mazkur jarayonni tashkil etish va boshqarish yuzasidan tegishli o'zgartirishlar kiritish;

O'qituvchining ta'lim jaryonini boshqarish vazifasi o'qitish jarayoniga faqat tegishli o'zgartirishlar kiritish bilan cheklanmasdan balki, mazkur jarayonning subyekti bo'lgan tahsil oluvchilar shaxsida axloqiy sifatlarining shakllanishi, ma'naviy yuksalishni ko'zda tutadi. Bunday faoliyatni boshqarish uchun o'qituvchi avvalo faoliyat turlari, unga ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillar, istiqboldagi maqsad va vazifalarni loyihalashi, olinajak natijalarni faraz qilish zarur.

O'qituvchining o'qitish jarayonidagi rahbarlik roli, tahsil oluvchilarning o'quv materialini ongli va faol o'zlashtirish faoliyatini boshqarish sanaladi. Buning uchun u:

— ilmiy jihatdan asoslangan o'quv vazifalarini belgilashi;

— tahsil oluvchilar tomonidan ushbu vazifalarni amalga oshirishga imkon beradigan qulay psixologik muhitni vujudga keltirishi;

— o'quv vazifalarini hal etish uchun amalga oshiriladigan faoliyat haqida aniq ko'rsatma berishi;

— tahsil oluvchilar duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni faraz

qilishi, ularga o'z vaqtida va yetarli darajada yordam ko'rsatishi;

— tahsil oluvchilarda o'zaro hamkorlik, yordam, samimiy muloqot, burch va ma'suliyat hissini vujudga keltirishi zarur.

## TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA O'QITUVCHI VA O'QUVCHI FAOLIYATI

O'qitish jarayonidagi o'qituvchi faoliyatining har bir bosqichi tahsil oluvchilar faoliyatining xarakteri va shaxsidagi o'zgarishlarga olib keladi. Shu sababli o'qituvchi faoliyatni amalga oshirishda muayyan bosqichdagi, o'quv fani va uning har bir bo'limidagi o'qitish maqsadlarini aniq bilishi va chuqur tahlil qilishi, ularni evolyutsion tarzda amalga oshirish yo'llarini belgilashi lozim.

Modulli ta'lif texnologiyasiga asoslangan darslarda o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyati modul dasturlari asosida tashkil etiladi. O'quvchilar o'quv materialini modul dasturidan o'rinni o'lgan o'quv topshiriqlarini sifatli bajarish orqali mustaqil o'zlashtiradilar va o'z o'quv faoliyatining sub'ektiga aylanadilar. Shu tariqa yagona ta'lif-tarbiya jarayonining ikkita sub'ekti o'qituvchi va o'quvchi o'quv jarayonidan ko'zlangan maqsadga erishadi.

Quyida modulli ta'lif texnologiyalari asosida tashkil etilgan darsda o'qituvchi va o'quvchilarning o'quv — bilish faoliyatidagi o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishamiz (3-jadval).

O'qituvchi o'quv materiallarini modullarga ajratadi va modul dasturini yaratadi. Har bir modulning xususiy didaktik maqsadi va o'quv topshiriqlarini aniqlaydi. Mashg'ulot yuzasidan nazorat test topshiriqlari va mustaqil ish topshiriqlarini tuzadi. O'quvchilarning mustaqil o'quv-bilish faoliyatini tashkil etadi. Modul dasturining didaktik maqsadi va o'quv topshiriqlari bilan tanishtiradi. O'quvchilarning modul dasturi yordamida mustaqil ishlarini tashkil etadi. Muammoli vaziyatlarni vujudga keltiradi, tegishli hollarda yordam uyshtiradi. Modul dasturidan o'rinni o'lgan har bir modul yakunida o'quv bahsi, savol-javob, munozara, aqliy hujum o'tkazadi. Modul dasturini yakunlaydi. Mashg'ulot yuzasidan test topshiriqlari yordamida o'qituvchi nazoratini amalga oshiradi. Erishilgan natijani tahlil qilib o'quvchilarga erishilgan natijasiga muvofiq holda mustaqil va ijodiy ish topshiriqlarini tavsiya etadi.

3-jadval

### MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIGA ASOSLANGAN DARSDA O'QITUVCHI VA O'QUVCHILARNING O'QUV-BILISH FAOLIYATIDAGI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLAR

O'QUV CHINING FAOLIYATI	O'QUV CHINING O'QUV BILISH FAOLIYATI	KO'ZLANGAN NATIJU
O'quv matnalarini modul dasturiga ajratadi va modul dasturini tuzadi. Har bir modulning xususiy didaktik maqsadi va o'quv topshiriqlarini singlaydi. Mashg'ulot yuzasidan rezocrat test topshiriqlari va mustaqil ishlash topshiriqlarini tuzadi. O'quvchilarning mustaqil o'quv balihi fadoliyati tashkil etadi. Modul dasturining didaktik maqsadi va o'quv topshiriqlarini biman tashkil etadi.		O'quvdilar fadoliyati matnu matnini mustaqil va jodiy ottibetishiga yollazh, o'quv bilish fadoliyati bo'sqichma-bo'sqich tashkil etish.
O'quvchilarning modul dasturi yordamida mustaqil ishlashini tashkil etadi.  Muammoli vaziyatdagi vujudga keltiradi, tegishli hodalarda yordam uysishlardi. Modul dasturidan chindigan har bir modul yuzasinda o'quv balihi, savol-javob, munozara, saqlay hujumda rad istishrok etadi.	Modul dasturining didaktik maqsadiga muvofiq o'z o'quv fadoliyatini tashkil etadi. O'quv balihi, savol-javob, munozara va saqlay hujumda rad istishrok etadi.	O'quvdibani modul dasturining didaktik maqsadi, modullarning xususiy didaktik maqsadlari, mashg'ulot davomida bajariladigan o'quv topshiriqlari, topshiriqlar yuzasidan ko'satmalarni anglaydi. O'z o'quvchilash fadoliyatini tashkil etadi. O'quv matnlarini mustaqil ottibetishlardi, o'quv topshiriqlarini shartli bajaradi, savollarga javob topadi. Muammoli vaziyatdandan chiqishning optimal variantlarini tashkil etadi.
Modul dasturini yordam besh.  Mashg'ulot yuzasidan test topshiriqlari yordamida digibuchi rezocratini singla oshirish. Erishilgan rezajani tashil qilish. O'quvchilarga erishilgan rezajisiga muvofiq hodalari mustaqil va ijodiy ishlash topshiriqlarini tuzishni etish.	Modul dasturining didaktik maqsadiga muvofiq o'z o'quv fadoliyatini tashil qiladi va boshlaydi.	Har bir shaxsingiz ko'zby va intellektual rivojlanishiga imkon yaratish. O'quvdilar ottibetida hamkorlik, o'zaro yordamni vujudga keltirish. O'z o'quv fadoliyatini tanqidiy tashil qilish va taj-qo'sish, o'z-dini rezocrat va bahobetsha org'anish. O'z o'quv fadoliyatidagi kamchilikdarga barhom barish yorinini singlatish va o'z usida istishzh rejajni tuzishiga engashish. O'quvchilarning biologik bilmalarni ottibetish samaradorligini artirish.

O'quvchilar modul dasturining didaktik maqsadi, modullarning xususiy didaktik maqsadlari, mashg'ulot davomida bajariladigan o'quv topshiriqlari, topshiriqlar yuzasidan ko'satmalarni anglaydi. O'z o'quv bilish faoliyatini tashkil etadi. Mashg'ulot matnini mustaqil o'zlashtiradi, o'quv topshiriqlarini sifatli bajaradi, savollarga javob topadi. Muammoli

vaziyatlardan chiqishning optimal variantlarini taklif etadi. O'quv bahsi, savol-javob, munozara va aqliy hujumda faol ishtirok etadi va h.k.

Xulosa qilib aytganda, o'qitish jarayonining samaradorligi o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning bilish faoliyatini o'qitish vazifalari va maqsadlariga muvofiq tashkil eta olish ko'nikmalarini egallaganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Ma'lumki, o'qitish jarayonida o'quvchilarning faoliyati uning o'quv bilish faoliyatini tashkil etadi. O'quvchilarning o'quv bilish faoliyati uchta tarkibiy qismga ajratiladi:

1. O'quv maqsadlariga erishish maqsadida muayyan o'quv fani asoslarini o'zlashtirishi uchun o'quv axborotini tinglash, mustaqil ishslash, o'qish, matn va referat tayyorlashga qaratilgan faoliyat.

2. O'quv fanining asosiy nazariy bilimlarni amaliyotga qo'llash maqsadida masalalar yechish, ko'rsatmaga muvofiq topshiriqlarni, algoritm va mashqlarni bajarish metodlarini o'rganishga qaratilgan faoliyat.

3. O'zlashtirilgan bilimlarni kutilmagan vaziyatlarda amaliyotga mustaqil qo'llash, olingan natijalarning haqqoniyligini o'z-o'zini nazorat qilishning turli shakllari orqali aniqlashga yo'naltirilgan faoliyat.

O'quvchilarning o'quv-bilish faoliyati bevosita ta'lrim mazmuni, vositalari, metodlari va shakllarining uzviyligiga bog'liq bo'ladi. Shu sababli bu masalalarni alohida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

#### BIOLOGIK TA'LIM MAZMUNI, VOSITALARI, METODLARI VA SHAKLLARINING UZVIY BOG'LQLIGI

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida biologik ta'lrim mazmuni davlat ta'lrim standartlari bilan me'yorlangan, shu asosda o'quv dasturi tayyorlangan va unga muvofiq holda darslikning yangi avlodiy yaratilgan.

Biologiya darsligida o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtiradigan, mustaqil ishlashi va ijodiy fikr yuritish, o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilishi va o'z-o'zini baholash, mantiqiy fikr yuritish operatsiyalarini bajarish natijasida biologik bilimlarni ongli o'zlashtirish ko'nikmalarini egallashlariga zamin tayyorlangan.

Darslikda<sup>1</sup> didaktik adabiyotlarda qayd etilgan ta'lrim mazmunining to'rtta tarkibiy qismlari:

1. Asosiy g'oyalar, nazariyalar va tushunchalar.
2. Faoliyat usullari (ko'nikma va malakalar).
3. Ijodiy faoliyat tajribalari.
4. Qadriyatlar tizimi o'z ifodasini topgan.

O'qituvchi biologik ta'lrim samaradorligiga erishish va o'quvchilarning

bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishi uchun ta'lif mazmunining tarkibiy qismlari va ularni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish usullarini bilishi lozim. Shuni e'tiborga olgan holda ta'lif mazmuni, uning tarkibiy qismlari, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish usullari 4-jadvalda berilmoqda.

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, ta'lif mazmunining tarkibiy qismi bo'lgan bilimlar o'quvchilar tomonidan o'quv materialini sezgi organlari orqali qabul qilish, tasavvur qilish, abstrakt fikr yuritish, o'rganilgan ma'lumotlarni taqqoslash yodda saqlash, bilimlarni tanish odatiy va yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llash bosqichlari yordamida o'zlashtiriladi.

O'quvchilarda faoliyat turlari — ko'nikma va malakalarni shakllantirish ko'nikma tarkibiga kiradigan ish usullarni aniqlash va ularni bajarish, ko'rsatmaga binoan shu ish usullarini takror mashq qilish, ko'nikmalarni tanish, odatiy va kutilmagan yangi vaziyatlarda ijodiy qo'llash kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Ta'lif mazmunining uchunchi tarkibiy qismi bo'lgan ijodiy faoliyat tajribalari o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritishiga zamin tayyorlab, uni o'qituvchining tayyor axboroti orqali shakllantirish mumkin emas. O'quvchilarda ijodiy faoliyat tajribalarini shakllantirish uchun ular o'quv materialini mustaqil ravishda o'zlashtirishlari, o'quv topshiriqlarini bajarish jarayonida muammolarni idrok etishi, tasavvur qilishi, abstrakt fikr yuritishi, o'rganilayotgan obyektlarni tahlil va sintez qilishi, taqqoslashi, o'xshashlik va umumiy tomonlarini aniqlashlari, fikr va g'oyalarni umumlashtirib, xulosa yasash orqali bilim, ko'nikma va malakalarini yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llashni o'rganishlari lozim.


Ta'lif mazmunining to'rtinchi tarkibiy qismi hisoblangan qadriyatlar tizimi o'qitish jarayonida ta'lif-tarbiyaning uzviyligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligini ta'minlash, o'quvchilarda tabiat va butun borliqqa nisbatan ongli munosabatni tarkib toptirishga xizmat qiladi. O'quvchilar mazkur tarkibiy qismni o'zlashtirishlari uchun avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni yangi kutilmagan vaziyatlarni ijodiy qo'llashlari, bir so'z bilan aytganda faol o'quv-bilish faoliyati talab etiladi.

#### TA'LIM MAZMUNINI O'QUVCHILAR TOMONIDAN O'ZLASHTIRISH BOSQICHLARI

4-jadval

---

<sup>1</sup> A.T. G'ofurov va boshqalar. Biologiya (evolyutsiya va ekologiya). Akademik litsey, kasb-hunar kollejlari uchun darslik. Toshkent, «Sharq», 2003-y.



Ta'lim mazmunining tarkibiy qismlari davlat ta'lim standartlarining asosini tashkil etadi. Davlat ta'lim standartlari tahlili uning quyidagi tarkibiy qismlardan iboratligini ko'rsatdi:

1. Asosiy qism — ta'lim-tarbiya jarayonidan ko'zlangan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga imkon beradigan biologik bilim, ko'nikma va malakalarning majmuasi sanaladi. Ta'lim mazmuni bilimlar, faoliyat turlari — ko'nikma va malakalardan iborat bo'ladi.

2. Kengaytiruvchi tarkibiy qism — o'quvchilarning biologik bilimlari va mustaqil hayotga tayyorgarligini orttirishga imkon beradigan, shaxs yoki guruh qiziqishlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim mazmuning bir qismi. Ta'lim mazmunining ijodiy faoliyat tajribalari va qadriyatlar tizimini o'z ichiga oladi.

3. Yordamchi qism — biologiya kursining mantiqiy strukturasining yaxlitligini ta'minlovchi ta'lim mazmunining ma'lum bir bo'limi.

4. Qo'shimcha tarkibiy qism — o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari yo'nalishi va mahalliy xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladigan ta'lim mazmunining bir qismi.

DTS ning asosiy va kengaytiruvchi tarkibiy qismlari o'zgarmas bo'lib, o'quv fanining asosiy fundamental va amaliy masalalarini yoritadi, yordamchi va qo'shimcha tarkibiy qismlari o'quvchilarning kelgusida egallaydigan mutaxassisliklariga bog'liq holda o'quv fanining o'zgarib turadigan qismi sanaladi.

Quyida DTS ning har bir qismi alohida ko'rib chiqiladi.

Yuqorida qayd etilganidek, O'MKHT muassasalarida biologiyani o'qitishda davlat ta'lim standartlarining asosiy qismini quyidagi tushunchalar, ko'nikma va malakalar tashkil etadi.

Biologiya o'quv fanida shakllantiriladigan tushunchalarni uch guruhga ajratish mumkin:

I. Umumbiologik tushunchalar.

II. Gnoseologik tushunchalar.

III. Kasbga yo'naltiruvchi tushunchalar.

I. Umumbiologik tushunchalar o'z navbatida quyidagi uchta yo'nalishga ajratiladi:

1. Organizm-biologik sistema.

2. Ekologik sistemalar.

3. Organik olam evolyutsiyasi (5-jadvalga qarang).

5-jadval

Organizm biologik sistema	Ekologik sistemlar	Organik olam evolyutsiyasi
Genetik injeneriya, hujayra injeneriyasi, irliyatning moddiy asoslari, sintezim, kbn, transformatsiya, transduksiya, ko'chib yuruvchi genetik elementlar, reguluator genlar, transmissibl va avtonom plazmidlar, rekombinat DNK, genlarni klonlash, vektor konstruksiya, restrikta zalar, transgen o'simliklar, gibridomalar, poliklonal va ironoklonal antitunarlar, yuqumli va irsti kasalliklarning gen injenerligi tashxisi biotexnologiyasi, gen daktikoskopiyasi, "yangi" organlar yaratish texnologiyasi.	Tashqi mohitning abiotik, biotik va antropogenetik omillari. Biosenoz, biogeosenoz oziq-zanjiri, produsentlar, konsumentlar, redutsentlar. Biosenoza modda va energiya almashinvi. Agrosenoz. Antropoekologiya, adaptiv tip turlari. Biosfera, biomassa. Biosferada moddalarning davriy aylanishi va energiya o'zgarishi. Biogen migratsiya. Biosfera va uning rivojlanishi boshqichlari. Biogenez, noogenez, noosfera.	Organizmlarning moslashganligi. Sun'iy tanlash, yashash uchun kurash xillari. Tabiyi tanlanish. Mutatsiyalar, rekombinativ o'zgarishchanlik mikroevolyutsiya va makroevolyutsiya. Tur, kenja tur, populasiya, tur kriteriyalari, strukturasi, tur hosil bo'lishi. Evolyutsiya dalillari, organik olamning rivojlanishi. Evolyutsiya omillari, yo'naliishlari, molekulyar asoslari, bosqarishti, natijasi. Yerda hayotning paych bo'lishi va rivojlanishi. Antropogenetik.

## II. Gnoseologik tushunchalar ham ikki guruhga ajratiladi:

1. Biologik g'oya, kashfiyat va nazariyalarning tarixi haqidagi tushunchalar. Bu tushunchalar turkumiga evolyutsion nazariya, evolyutsiya dalillari, biogenetik qonun, filembriogenez nazariyasi, hayotning paydo bo'lishi va rivojlanishi haqidagi nazariyalar, biosfera va uning evolyutsiyasi nazariyalar, nuklein kislotalar, transformatsiya, transduksiya, ko'chib yuruvchi genetik elementlar, rekombinat DNK, transgen o'simliklar, hayvon gibridomalarining kashf etilishi, irlsiyatning moddiy asosini o'rganish tarixi, gen injeneriyasi va biotexnologiyaning rivojlanishiga hissa qo'shgan kashfiyotlar, O'zbekistonda gen injeneriyasi sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlar kiradi.

2. Metodologik ya'ni borliqni ilmiy bilish metodlari haqidagi tushunchalar. Biologiya va ekologiyani o'rganishda foydalaniladigan metodlar, o'simlik va hayvon irlsiyatini o'zgartirishda, DNK ni bo'laklarga ajratish, rekombinat DNK, transgen o'simlik va gibridomalar olishda qo'llanilgan metodlar shular jumlasidandir.

## III. Kasbga yo'naltiruvchi tushunchalarni uch guruhga ajratish mumkin:

1. Texnologik tushunchalar. Bu guruhga hujayrada D NK, RNK sintezi, oqsillar biosintezi, genetik injeneriya va biotexnologiyada amalga oshiriladigan jarayonlar, transgen o'simlik va gibridomalar olish, irlsiy kasalliklarning gen injenerlik tashxisi biotexnologiyasini ishlab chiqilishi haqidagi tushunchalar misol bo'ladi.

2. Iqtisodiy tushunchalar. Mazkur guruhga sun'iy tanlash yordamida yangi nav, zot, shtammlarni yaratish, genlarni klonlash, transgen o'simliklar va gibridomalarning istiqbollari, ulardan xalq xo'jaligida foydalanishdan

ko'rildigani foyda asosida shakllantiriladigan tushunchalar kirdi.

3. Tabiatni muhofaza qilishga oid tushunchalar. Respublikamizda tabiatni muhofaza qilish bo'yicha amalga oshiralyotgan tadbirlar va me'yoriy hujjatlar, «Qizil kitob», ekologik muhitning tirik organizmlarga ko'rsatgan ta'siri, turli kasalliklar va mutatsiyalarning kelib chiqish sabablarini tushuntirish orqali o'quvchilarda tabiatga nisbatan ongli munosabat tarkib toptiriladi va tabiatni muhofaza qilish tushunchalari shakllantiriladi.

Biologiyani o'qitishda tushunchalarni shakllantirish barobarida ko'nikmalar ham tarkib toptiriladi. Ushbu ko'nikmalarning eng asosiyлари amaliy va o'quv mehnati ko'nikmalari 6-jadvalda berilmogda.

6-jadval

A'maliy va o'quv Mehnati ko'nikmalari	Ko'nikmalar tarkibiga kiradigan usullar
Laboratoriya jihozlari va asbobleri bilan ishlash ko'nikmalari	Kattalaشتiruvchi asbobler bilan ishlash, mikropreparatlarni tayyorlash, ularni mikroskop yordamida ko'rish, bakteriyalar uchun oziq muhitini tayyorlash, bakteriyalarni ikonlash, laboratoriya rashtg'uloti uchun kerakli jihozlarni tanlay olish va asrashi.
O'simlikdardan gerbariy, hashoratlardan kolleksiya tayyorlash ko'nikmalari	O'simliklar va hashoratlarda yashash uchun kurash, mostashishlar, tabiy tanlanish va idiodaptasiyaning o'rganish bo'yicha o'tkazilgan kuzatishlar asosida gerbariyalar, kolleksiyalar tayyorlash, ularni talab darajasida rasmiylashtirish. Hashoratlarda mostashish, yesash uchun kurashga oid majmumalar tayyorlash va uni jihozlash.
O'simliklar ustida kuzatish va tajribalar o'tkazish ko'nikmalari	O'simliklar va hayvonlarda yashash uchun kurash, tabiy tanlanish va irlisyat qonunlarini o'rganish bo'yicha kuzatish va tajribalar o'tkazish.
Obyektlarni tanish ko'nikmalari	Evolutsiya dalillari, oziq zanjirini tashkil etuvchi organizmlar, organizmlardagi mostashish turлari, transgen o'simliklar va qibriddomalarni ajratish.
O'quv mehnati ko'nikmalari	Dars ikki va bos hisqa qo'shimcha o'quv adabiyyotlarda matnini mustaqil d'zlashitish, asosiy g'oya va tushunchalarni ajratish olish, rasim, jadval, sfermaturni izohlash, savollarga javob topish, o'z fikrini qisqa va b'nda bayon etish, asoslash, misollar yordamida d'zlash olish, o'quv materialini qayta ishlash, qisqa matn tuzish, ma'reza, referat tayyorlash va ularni talab darajada rasmiylashtirish.

DTS ning ikkinchi kengaytiruvchi tarkibiy qismi o'quvchilarda ijodiy faoliyat tajribalarini shakllantirishga mo'ljallangan bo'lib, mustaqil va ijodiy fikr yuritishga asos bo'lib xizmat qiladi.


O'qituvchi yangi mavzu bo'yicha o'quv topshiriqlarini tuzganda o'quvchilarning o'rganilayotgan obyektni avval o'rganilgan obyektlar bilan taqqoslashi, o'xshashlik va farqlari, o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashi, mazkur obyektlar o'rtasidagi umumiylilik, o'rganilayotgan obyektning o'ziga xos

tomonlari, eng muhim jihatlarini topishi buning uchun avval o'zlashtirgan bilimlari va ko'nikmalarini yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llab, yangi mavzu mazmunini o'zlashtirish imkoniyatini nazarda tutmog'i lozim.

O'quvchilarda ijodiy faoliyat tajribalarini shakllantirish yo'llari 7-jadvalda berilmoqda.

#### O'QUVCHILARDA IJODIY FAOLIYATNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

7-jadval



DTS ning uchinchi tarkibiy yordamchi qismi o'quvchilarning biologiya o'quv faniga bo'lgan qiziqishlari va ehtiyojlari asosida o'qituvchi tomonidan

olib boriladigan sinfdan tashqari ishlar va o'quvchilarning mustaqil ta'limenti o'z ichiga oladi.

O'quvchilarning mustaqil ta'limi qo'shimcha o'quv adabiyotlari, internet, multimedialar vositasida muayyan mavzularda izlanishlar olib borishi, ma'ruza va referatlar tayyorlashi, o'simliklar, hayvonlar va mikroorganizmlar ustida kuzatish va tajribalar o'tkazishi, ularning natijalarini izohlash va rasmiylashtirishlari, respublikamizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish borasida va ekologik muammolarni hal etishga oid tashkil etiladigan turli tanlovlardan uchun materiallar tayyorlash, olimpiadalarga tayyorgarlik ko'rish kabilarni o'z ichiga oladi.

DTSnинг бу тарқиби қисмининг сармадорлиги о'кув музассасининг yo'nalishi, o'quvchilarning kelgusida egallaydigan mutaxassisligi ва ularning ehtiyoji, qiziqishi, o'qituvchining pedagogik bilim, mahoratiga bog'liq bo'ladi.

#### BIOLOGIYANI O'QITISHDA KASBGA YO'NALТИРИШ

DTSnинг то'rtинчи qo'shimcha тарқиби қисми биологида та'limining kasbga yo'naltirilishini nazarda tutuvchi қисми hisoblanadi.

Respublikamizda о'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi quyidagi 8-ta bilim sohalari va akademik litseylar bo'yicha tashkil etilgan bo'lib, ularda биологиа yagona dastur asosida o'qitiladi. Biologiya o'qituvchisi ta'lim muassasasining yo'nalishini hisobga oлган holda ta'lim mazmunining qo'shimcha тарқиби қismiga e'tiborni qaratishi, ya'ni biologik ta'limni kasbiy yo'naltirishi lozim.

8-jadval

Tarlim sohali	Biologyani o'qitishda etiborli qurashish surʼi bo'lgan mazmalalar
Tarlim	O'quvchilarni zojir shaklga, shabʼiyyet, mazmalat, jisʼiy, ekologik, iqtisodiy, qigʼiyilik va jumʼiyotli shakldan yotish qilib tashkil yashishda, ularning hukmli dunyoq sanʼati haqida saʼzovlar, karʼon toʼlarning tabʼish bilan usqʼunligi, tabʼishga rivozidan mazʼuratish-bat tuyʼugʻi va osnovni mazʼuratishdan tabʼish boʼlib leshda tabʼishning fikrsizligi;
Gumanitar fanlar va xonakt	Tabʼishni mazʼuratish qilech bo'yicha mazʼutymalitliy lehumi olib borish, tabʼish barcha xonakt turinini rivozlarinchidan mazʼuratish;
Jumʼiyatlar, Etimler va huquq	Shaxs karʼon toʼlarning tabʼish bilan usqʼunligi, lehob chiqarish va agrovazniyadagi rivozlarinchidan, xomaytaydan olinadigan toʼsuvdan, shaxs lehob chiqarishda mazʼuratishga uchandidan foydalantish, gen doʻstlik hujayʼi va gender epʼatliy va davomiya shaxsni aniqlash bezakdaschalma usqʼunligi;

Jadvalning davomi

Talim sohasi	Biologijani o'qitishda e'tiborni qaratish xarur bo'lgan masalalar
Fan	Ekologik muammlolar, suv, havo, tuproq, qishloq xo'jaligi, odam ekologiyasi, ularni muhofaza qilish bo'yiche olib borilayotgan tadbirlar, tabiiy boyliklar va ulardan ununli foydalanish yollarini va chiqindisiz texnologiyalarni joriy etish muammlolarini.
Muhandislik, ishlav berish va qurilish tarmoqlari	Biosferada modda va energiyasining davra bo'ylab oylanishi, ekologik toza menbalar energiyasidan foydalanish, bionika asosleri, tabiiy va sun'iy xom asbyozlardan foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish, Yer ustti va osti tabiiy boyliklari va ulardan ununli foydalanish yollarini, chiqindisiz texnologiyalarni joriy etish muammlolarini. Sun'iy tanlash asosida o'simlik navlari hosildorligi, hayvon zotlari mehnulorligini oshirish yollarini, mikrobiologiya va bioteknologiya asoslaridan qishloq xo'jaligi mehnulotlarini qayta ishlashda foydalanish, ikkilanchi suv va ichimlik suvini toxashdashda suv o'taridan foydalanish, biologik bilimlarning o'simlikshunoslik, chorvadilik, ozarichilik, or'monchilik, no'nechilik va baliqchilikni rivojantirish, bog', parklarni barpo etish, ko'karancovshtirish, o'simliklarni himoya qilishdagi shamiya, qurilish, yollar barpo etish, qurilish materiallarni tayyorlashda tabiet muvozanatini aerasht.
Qishloq xo'jaligi	Biologik qonuniyettar qishloq xo'jaligining ilmiy-nazariy asosi ekanligi, qishloq xo'jaligi mehnulotlarini etishdirish, saqlash va qayta ishlash, o'simliklarni himoya qilish, zootehnika va veterinariya, or'monchilikni rivojantirishda biologik bilimlarning shaniyoti, tuproq va er osti suvaridagi pestisidlarni parchalovchi va zararsizlantruvchi transgen o'amlik yaratish, paxta toslasi sifatini yeshilishga yo'renkirigan bioteknologiya, hayvonlarni klonlash, qibridermolar olish istiqbollarini.
Sog'likni saqlash	Gen, hujsiga injenerligi usullarini qo'llab qator yuqumli va irlsiy karsiliklarning gen injenerligi texnigi bioteknologiyasi, irlsiyarnish qonuniyettarini o'rganish va oldini olish borasida olib borilayotgan izlanishlar, "nesos" hujsaylardan "yangi" organlar yaratish texnologiyasi, "Sog'lik" avlod uchun Davlat dasturi, onaslik va bolalikni aerasht va tibbiy yordam ko'rsatishni yeshilish bo'yicha davlat qorolarini.
Xizmatlar	Turizm, sport, servis, omaviy bayrangler o'tkazish, xalq og'zakli ijodini rivojantirishda tabiet fanlarining rolini ko'rsatish lozim.

#### O'QITISH VOSITALARI VA METODLARI

Ta'lrim mazmunining tarkibiy qismlari va ularni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi o'qitish vositalarini to'g'ri tanlash va o'z o'rnda samarali foydalanishni talab etadi. Biologiya darslarida o'rganilayotgan mavzuning mazmunidan kelib chiqqan holda ularni yoritish imkonini beradigan tabiiy, tasviriy ko'rgazmalar, ekran vositalari, o'quv jihozlari, multimedialar, elektron versiyalar va qo'llanmalardan foydalanish tavsiya etiladi. Darsning mazmuni va foydalaniladigan ko'rgazmali vositalar muayyan o'qitish metodlarini talab etadi.

O'qituvchi o'qitish metodlarining turlarini, ularga mansub uslublarni,

foydanish yo'llarini yaxshi bilishi lozim. Shuni hisobga olgan holda quyida o'qitish metodlarining guruhlari haqida fikr yuritiladi.

Og'zaki bayon metodlari guruhi o'z ichiga suhbat, hikoya, ma'ruza metodlarini oladi. Quyida shu metodlarning tarkibiga kiruvchi metodik uslublar keltiriladi:

Suhbat metodi suhbat savollarini ketma-ketlikda qo'yish, yordamchi va qo'shimcha savollarni o'z vaqtida berish, o'quvchilarni faollashtirish, o'quvchilar javobidagi xatolarni to'g'rilash, xulosa va umumlashtirishni tarkib toptirish uslubi.

Hikoya metodi o'quv materialini jonli, obyektlarga xos xususiyatlarni bayon qilish, axborotning ilmiyligi, izchilligi, tushunarligi, nutqning ravonligi va ifodaliligi uslubi.

Ma'ruza metodi o'quv materialini mantiqiy ketma-ketlikda bayon qilish, muammolarni qo'yish, obyektlarni aniqlash, taqqoslash, xulosa chiqarish, umumlashtirish, o'quvchilarning diqqatini jalb qilish uslubi.

Ko'rgazmali metodlar guruhiga tabiiy va tirik obyektlar, tasviriy ko'rgazma, ekran vositalari, EHMning ko'rgazmali dasturlari, multimedialarni namoyish qilish metodlari kirib, muayyan holda quyidagi ko'rgazmali vositalarni namoyish qilish, illyustratsiya, demonstratsiya, o'quv kinofilmlari, videofilmlar, EHMning ta'limi, modellasshtirilgan dasturlari, elektron darsliklar, multimedialarni namoyish qilish, ko'rgazmaning did va estetik talablarga javob berishi, dars mazmunini yoritishi, ketma-ketlikda o'quvchilar faoliyatini tashkil etish uslublaridan tashkil topadi.

Amaliy metodlar guruhiga kuzatish, tajribani tashkil etish va o'tkazish, amaliy ishni bajarish metodlari kirib, ular mos holda, obyektlarni tanib olish va aniqlash, kuzatish va tajribalar o'tkazish, o'quvchilarga amaliy ishning borishini bayon qilish, amaliy ishlarni bajarish rejasini tuzish, amaliy ish topshiriqlarini bajarilishini nazorat qilish, topshiriqlarni bajarish natijalarini tahlil qilish, o'z-o'zini nazorat qilish, amaliy ish, kuzatish va tajribalarni yakunlash va rasmiylashtirish uslublaridan iborat bo'ladi.

Muammoli izlanish metodlari muammoli vaziyatlarni yaratish, muammoli savollar zanjirini tuzish, muammoli topshiriqlar tuzish va tajribalar o'tkazish, muammoli vaziyatlarni hal etish yuzasidan o'quv farazlarini hosil qilish, o'quv farazlarini isbotlash, obyektlarni taqqoslash, mantiqiy mulohaza yuritish, o'quv-tadqiqot tajribalarini o'tkazish, o'quv xulosalari va umumlashmalarini ta'riflash uslublarini o'z ichiga oladi.

O'qitishning mantiqiy metodlari guruhi induktiv, deduktiv, tahlil, bosh g'oyani ajratish, qiyoslash, umumlashtirish metodlaridan iborat bo'lib:

a) induktiv metod — xususiy faktlarni muammoli bayon qilish, o'quvchilar faoliyatini xususiydan umumiylar xulosalar chiqarishga yo'naltirish, muammoli topshiriqlarni berish uslubi;

b) deduktiv metod — umumiy qonunlarni bayon qilish, o'quvchilarning faoliyatini umumiyan xususiy xulosa chiqarishga yo'naltirish uslubi;

d) tahlil metodi — axborotni anglab idrok etish, o'rganilgan obyektlarning o'xshashlik va farqli tomonlarni aniqlash, o'rganilgan obyektlarni tarkibiy qismlarga ajratish, ular o'rtasidagi boshlanishlarni aniqlash uslubi;

e) bosh g'oyani ajratish metodi — o'quv materialidagi asosiy g'oyani ajratish va saralash, axborotni mantiqiy tugallangan fikrli qismlarga ajratish, asosiy g'oya va ikkinchi darajali fikrlarni ajratish, tayanch so'zlar va tushunchalarni ajratish, asosiy fikr haqida xulosa chiqarish uslubi;

f) qiyoslash metodi — qiyosiy obyektlarni aniqlash, obyektlarning asosiy belgilarni aniqlash, taqqoslash, o'xshashlik va farqlarni aniqlash, qiyoslash natijalarini shartli belgilar bilan rasmiylashtrish uslubi;

g) umumlashtirish metodi — o'quv materialidagi tipik faktlarni aniqlash, qiyoslash, dastlabki xulosalar, hodisaning rivojlanish dinamikasini tasavvur qilish, umumlashtirish natijalarini shartli belgilar yordamida rasmiylashtirish, umumiy xulosa chiqarish uslublarini o'zida mujassamlashtiradi.

Mustaqil ish metodlari guruhiba ko'rgazma vositalari va darslik ustida mustaqil ishslash metodlari kiradi. Ular tarkibiga mustaqil ish topshiriqlarini berish, o'quv faoliyatida mustaqillikni rivojlantirish, o'quv mehnati malakalarini tarkib toptirish, namunaga muvofiq mustaqil ishlarni tashkil etish, ijodiy topshiriqlar berish uslublari kiradi.

O'qitishni rag'batlantirish va asoslash metodlari guruhiba o'qishga bo'lган qiziqishni orttirish, didaktik-o'yin, o'quv munozaralari, o'quvchilarning taxsil olishdagi burch va ma'suliyatini shakllantirish metodlari mansub bo'lib, ular quydagi:

a) o'qishga bo'lган qiziqishni orttirish metodlari o'quvchilarda ijobjiy hissiyotni vujudga keltirish, qiziqrli analogiyalardan foydalanish, taajjublanish effekti, bilish quvonchini vujudga keltirish, o'quvchilarni rag'batlantirish va tanbex berish uslubi;

b) didaktik-o'yin metodi o'yin syujetini tanlash, o'yin vaziyatlarini vujudga keltirish, o'quv-bilishga oid o'yinlarni tanlash, o'quvchilarni rag'batlantirish uslubi;

v) o'quv munozaralari metodi o'quv bahslarini keltirib chiqaradigan vaziyatni yaratish, ilmiy bahslarni vujudga keltirish. O'quvchilarni muvaffaqiyatlarga yo'llash, o'quvchilar fikrini bayon qilishi, ular javobidagi xatolarni to'g'rakash, o'quvchilarni rag'batlantirish uslubi;

d) o'quvchilarning tahsil olishdagi burch va ma'suliyatini shakllantirish metodi ta'lim-tarbiyaning ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish, o'qishning shaxsiy ahamiyatini tushuntirish, o'quv talablarini qo'yish, o'qitishda

rag'batlantirish va tanbeh berish kabi uslublarni mujassamlashtiradi.

O'qitishdagi nazorat va o'z-o'zini nazorat metodlari guruhiga og'zaki va yozma nazorat, laboratoriya va amaliy ish yordamida nazorat, o'z-o'zini nazorat, o'zaro nazorat varag'i va testlar yordamida nazorat metodlari misol bo'ladi va quyidagi:

a) og'zaki va yozma nazorat metodlari o'quvchilarning bilimlarni mantiqiy izchil bayon qilishga o'rgatish, nutqni o'stirish, o'quvchilar javobidagi tipik xatoliklarni aniqlash va unga barham berish uslubi;

b) laboratoriya va amaliy ish yordamida nazorat metodlari o'quv va amaliy ko'nikmalarini aniqlash, o'quvchilarning o'quv jihozlari va asboblar bilan ishlash ko'nikmalarini aniqlash, bajarilgan topshiriqlarning sifatini aniqlash va baholash, ish mazmuniga bog'liq holda obyektlar va asboblarni to'g'ri tanlash, ishni yakunlash va natijasini rasmiylashtirish, olingan natijalarning to'g'rilingini aniqlash uslubi;

d) o'z-o'zini nazorat qilish metodlari o'quv materiali yuzasidan qisqa reja, savollar tuzish, asosiy g'oyani ajratish, savollarga javoblar topish, masalalar echish va ularni namunaga muvofiq tekshirib ko'rish, taqqoslash, olingan natijalarning to'g'rilingini tekshirish uslubi;

e) o'zaro nazorat varag'i yordamida nazorat metodlari o'rganilgan bob, mavzu bo'yicha nazorat savollarini tuzish, savollarning metodik jihatdan to'g'riliqi, mantiqiy ketma-ketligi, o'quvchilar bilimini nazorat qilishning haqqoniyligi, keng ko'lamliligi uslubi;

f) testlar yordamida nazorat metodlari o'rganilgan bob, mavzu bo'yicha nazorat testlarini tuzish, test savollari va javoblarning metodik jihatdan to'g'riliqi, mantiqiy ketma-ketligi, o'quvchilar bilimini nazorat qilishning haqqoniyligi, keng ko'lamliligi kabi uslublardan iborat.

Ta'lim mazmuni, vositalari va metodlari uzviy ravishda o'qitish shakllarini taqozo etadi.

#### O'QITISH SHAKLLARI

O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy tarbiyalash bilan uzviy bog'langan uzlusiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish nazardautilgan.

Shu tarzda fuqaroning eng asosiy konstitusiyaviy huquqlaridan biri bilim olish, ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish huquqi ro'yobga chiqariladi.

Uzlusiz ta'lim tizimi oldidagi mazkur vazifalarni amalga oshirish ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligiga, samaradorlik esa o'z navbatida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etilishi va boshqarilishiga bog'liq.

Hozirgi zamon ta'limgarbiya jarayonida hukmronlik qilayotgan an'anaviy ta'limgarbiyalarni yalpi o'qitishni va o'quvchilarning bilish faoliyatini passiv tinglovchi sifatida tashkil etishni nazarda tutadi. O'qitish ishlarini tashkil etishda o'rta saviyali o'quvchi mo'ljalga olinadi, o'quvchilarning mustaqilligi e'tibordan chetda qoladi, o'quv faoliyatini o'qituvchi tomonidan boshqariladi. Bu holat an'anaviy ta'limgarbiyalarning pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan jarayon bilan taqqoslaganda yaqqol ko'zga tashlanadi.

9-jadval

Ta'limgarbiyalarning o'tiga oxov bo'lgichlari, xurujotlari	An'anaviy ta'limgarbiyalarning o'tiga oxov bo'lgichlari	I'anaviviy pedagogik texnologiyalarga suwlangan ta'limgarbiyalarning
Pedagogik munosabatlar haqida Davning mazqatlari	O'seborlar	Inzoparvarshchik va demokratik pedagogik o'seborlar
Davning mazqatlari	Bilimlarni o'seborshchik, ko'nikma va mazsalaburni haqil qilish, o'quv materialini turushish.	Bilasining qisiqlikni me'moriini ni- vojantirish, seglib, minnaly- selqaly, rabiye va jumrnaly bar- leydiganligini turishish.
Davning mazmuni	Davbur fabrikasi, davburdeg'i o'quv materiallari;	Bilish turublarini o'sebor, zoro'f mazsalabeg'i, jangyot nizoli degi yu- moly va shaxsylarygaga me- lik o'sgartishini angishish, shaxsini niusibattinga indikon beradijan o'quv o'seborlarda pastashlar.
Ta'llimning hamkor lant navusi kuchi	Tashkil, buyruq, tsigiqish, jas- sak, baho, bo'vholinga tayyor- lab shaxsiy hamkorlari yoki mag- tobatishchik	Bilish quvorchi, o'sebor, jangyot o'sgartishimi his qilish, o'tiga va o'seborlarga ta'limning poj- do bo'lishi, o'chni va bo'vholing hamkor qilish, o'taro, hamkor haqida suwlangan qibay ijmoly- sekol o'sebor.

Jadvalning davomi

Ta'lim jarayonining o'ziga xos bosqichlari, xususiyatlari	An'anaviy ta'lim jarayoni	Zanoneraviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan ta'lim jarayoni
Darsda faoliyat usuli	Turhunish, takrorish, mustaqil qilish, yodish, mununga muvoqiq amaliy ishlashish;	Hankotlikda biddiqot otlasizch muammoli surʼat, aqliy hujum munosora, oqituvchi va o'quvchi ortasida insonparavartik munosabatlarining shakllari;
Darsni tashkil etish	Oy vazifasini solish, yangi bilimlarni o'rinnish, umumiyish, turhunish, takrorish, mustahkamish, beholash	O'quvchilarning muammoli saydilarga javob topishi, awal o'zlashtirgan bilimlarni yangi va kutubmagan vaziyatorda qollash individual va guruhli biddiqotlar, izlanishlar orqali umumiy edinma ga kelish;
Oqituvchining roli	Bilim va axborot menbi, o'quvchi haqidagi javobber yuridika hokim	Hankor, dorst, moshashchi, muhammoni hal qilish, bilimlarni egallash usullarini o'rgatuvchi g'aniyat ustoz.
Oqituvchining vazifasi	Bilimlarni o'zlashtirishning eng eon shaklida bayon etish	O'qur va anayti vazifalarni hal etishda o'quvchilarning faol ishtiroti va o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va bo'shgarish.
O'quvchining vazifasi	Axborotni qabul qilish, yodash, xaborotni qayta ishlanagan holda shu shaklida javob berish, tegishli behoni kutish;	O'qur topshiriglari va muammolini hal etishning individual, quruhli izlanishlarde ishtirok etish doimo o'z bilimini boyitesh va mustahkamish nesqida mutazam va sidqaldan mahnat qilish, o'zini, iqtidori ni namoyon etish
Tallinuring yakuniy matjasi	OTS va dastur talabalariga mos bilim ko'nikma va malakolarining shakllanishiga erishish	O'quvchilarning aqliy, zanoneraviy, axlojiy, jamoniy, rufiy berkanoligiga erishish, bilimlarni egallash usullari, o'zlashtirgan bilimlarni yangi kutubmagan vaziyatorda qillashiga o'rashish, o'z ustida mustaqil va mutazam ishlash kolniklarini hosil qilish orqali OTS va dastur talabalarini anchi bejarish.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni hal etish va an'anaviy ta'lim tizimidagi kamchiliklarga barham berish, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish uchun o'quvchilarning bilish faoliyatini yalpi o'qitish bilan bir qatorda, individual va kichik guruhlarda o'qitishni tashkil etish maqsadga muvofiq.

O'quvchilarning bilish faoliyati individual tarzda tashkil etilganda o'quvchilar o'quv materialini mustaqil o'zlashtiradilar, ularning aqliy rivojlanishi, qiziqishi, ehtiyoji, iqtidori, bilimlarni o'zlashtirish darajasi

hisobga olingan holda tuzilgan o'quv topshiriqlarini mustaqil bajaradi va o'z bilish faoliyatining subyektiga aylanadi.

O'quv topshiriqlarini individual bajarish jarayonida o'quvchilarning aqliy faoliyati jalb etiladi, o'z bilimi, kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonch ortadi va har bir shaxs o'z imkoniyati darajasida rivojlanadi. Shu tarzda tashkil etilgan bilish faoliyati orqali vaqtidan unumli foydalaniladi, samaradorlik ortadi. Modulli ta'lif texnologiyasi, hamkorlikda o'qitishning metodlaridan foydalanib, tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning bilish faoliyati individual tarzda tashkil etiladi.

O'quvchilarga ta'lif — tarbiya berishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lif tizimida pedagogik faoliyat ko'rsatayotgan har bir o'qituvchining diqqat markazida bo'lmog'i lozim. Darsda o'rganiladigan mavzuning mazmunini e'tiborga olgan holda darsda o'quvchilarning kichik guruhlarda mustaqil ishlashi, debatlar tashkil etish, aqliy hujum, didaktik o'yinlar, taqdimot, o'z-o'zini baholash, tashrif kabilardan foydalanish, masala va mashqlar yechishni yo'lga qo'yish dolzarb hisoblanadi.

Biologiyani o'qitishda o'quvchilarning bilish faoliyatini individual tarzda tashkil etish asosan dars bilan birgalikda darsdan va sinfdan tashqari ishlarda ham foydalaniladi. Masalan, o'quvchilarning uy vazifasini bajarishida ularga tavofutlab yondoshish imkoniyatlari mavjud. O'quvchilarga muayyan mavzular bo'yicha krossvordlar tuzish, kuzatish va tajribalar o'tkazish, ma'ruza va referatlar, turli mavzularda o'tkaziladigan tanlovlardan uchun materiallar tayyorlash shular jumlasidandir.

O'quvchilarning bilish faoliyati kichik guruhlarda tashkil etilganda guruhdagi har bir o'quvchi iqtidori, qiziqishi, bilim saviyasi, bilimlarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'quvchilar o'rtasida hamkorlik, o'quv muloqoti, bahsi, munozara, o'zaro yordamni amalga oshirish ko'zda tutiladi.

Biologiya o'qitishda hamkorlikda o'qitish texnologiyasining barcha metodlaridan, modulli ta'lif texnologiyasining o'quvchilarning kichik guruhlarda ishlashiga mo'ljallangan modul dasturlaridan foydalanish shular jumlasiga kiradi.

Biologiya darslarida o'quvchilarning bilish faoliyati yalpi o'qitishni individual va kichik guruhlarda ishlash shakllari bilan uyg'unlashtirilganda juda yuqori samara beradi. Hamkorlikda o'qitishning kichik guruhlarda o'qitish metodida yalpi o'qitish kichik guruhlар bilan, «arra» metodida esa, o'quvchilarni avval individual tarzda, so'ngra kichik guruhlarda o'qitish uyg'unlashtirildi.

Biologiya darslarida o'rganilayotgan mavzuning didaktik maqsadi, vazifalari, mazmunidan kelib chiqqan holda o'quvchilarning bilish faoliyati individual, kichik guruhlarda va yalpi holda tashkil etish shakllaridan o'z

o'rniда va samarali foydalanish tavsiya etiladi.

Ma'lumki, biologiyani o'qitish dars, darsdan tashqari ishlar, sinfdan tashqari ishlar va ekskursiyalar shaklida tashkil etiladi.

Ta'lif-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida biologiyani o'qitishga tizimli yondoshildi. O'quv dasturidan o'r'in olgan har bir mavzuning ta'limi, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadi hisobga olingan holda biologiyani o'qitishda quyidagi dars turlari (10-jadval) dan foydalanish tavsiya etildi:

### 1. Ma'ruza darslari

Biologiyani o'qitishda foydalaniladigan ma'ruza darslari didaktik maqsadi va mazmuniga ko'ra uch guruhga ajratiladi:

Kirish ma'ruzasi, mavzuli ma'ruza, umumlashtiruvchi ma'ruza.

Kirish ma'ruzalari o'quv fanining, u yoki bu bobni o'rganishga bag'ishlangan birinchi darsda foydalaniladi. Unda o'quv fanining, mazkur bobning o'rganish masalalari, muammolari, keyingi darslarda o'tkaziladigan mavzularga qisqacha to'xtaladi.

Mavzuli ma'ruzalar biologyaning muhim, dolzarb va muammoli, chunonchi, «Evolyutsiyaning sintetik nazariyasi» mavzusini o'rganishda foydalanildi.

Umumlashtiruvchi ma'ruzalar bobning yakunida o'tkazilib, unda avvalgi darslarda o'rganilgan bilimlar tartibga solinadi, mustahkamlanadi, chuqurlashtiradi.

Ma'ruza darslari tuzilishi jihatidan uch qismga bo'linadi: kirish, asosiy qism, xulosa.

Ma'ruzaning kirish qismida o'quvchilarining diqqati, bilish faoliyati faollashtiriladi, bilimlarni qabul qilishga zamin tayloranadi. Buning uchun ma'ruzani boshlashda uning mazmuniga oid qiziqarli misollar, yorqin va hissiyotga boy voqeа va hodisalar bayon etilib, o'quvchilar oldiga muammolar qo'yiladi.


Ma'ruzaning asosiy qismida o'quv materiali didaktik tamoyillarga amal qilingan holda mantiqiy izchillikda bayon qilinadi. Ma'ruzaning xulosa qismida o'quvchilarining bilimlari tartibga solinib, umumlashtiriladi, xulosalar chiqariladi.

Ma'ruza mazmuni va o'quvchilar faoliyatining tashkil etilishiga ko'ra induktiv yoki deduktiv ravishda tuzilgan bo'lishi mumkin. Ma'ruza induktiv tuzilganda, avval o'quvchilarini hodisa va obyektlar bilan tanishtirilib, keyin umumiyl xulosa keltirib chiqariladi. Shunga bog'liq holda o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyati ham induktiv tarzda tashkil etiladi.

O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MUASSASALARIDA

FOYDALANILADIGAN DARS TURLARI

10-jadval



Deduktiv ma'ruzada esa buning aksi bo'ladi, ya'ni avval umumiy tushunchalar beriladi, keyin obyektlar va hodisalar yordamida uning mazmuni ochib beriladi. Shunga bog'liq holda o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyati deduktiv tarzda tashkil etiladi.

Biologiyani o'qitishda ma'ruba darslari bilan bir qatorda seminar mashg'ulotlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Seminar darslarida o'quvchilar o'qituvchi tavsiya etgan reja asosida o'quv materialini axborot manbalaridan foydalilanigan holda mustaqil o'rganadilar. Bunday darslar o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishda, bilimlarni mustaqil egallashlarida, kengaytirishda, chuqurlashtirishda katta

imkoniyatlarga ega. Bu jarayonda o'qituvchining vazifasi o'quvchilarning seminar mashg'ulotlariga tayyorgarligi, mustaqil bilim olish faoliyatini tashkil etish va boshqarish sanaladi. Seminar mashg'ulotini o'tkazishda ikki xil yondoshuv mayjud. Birinchi xil yondoshuv ma'ruza-seminar tizimi bo'lib, unda o'qituvchi o'quv materialini ko'rgazmali vositalardan foydalangan holda ma'ruza shaklida bayon etadi. Shundan so'ng, o'quvchilar o'quv topshiriqlari asosida o'quv materiallarini qayta mustaqil holda ishlab chiqib, uni konkretlashtiradilar va darsda muhokama qiladilar. Bu xildagi yondoshuvni mavzu tushunchalar va atamalarga boy bo'lgan paytda qo'llash maqsadga muvofiq.

Ikkinci xildagi yondashuvda seminar darslaridan mustaqil ish shaklida foydalaniladi, ya'ni o'quvchilar hali o'zlariga noma'lum bo'lgan o'quv materiali asosida mustaqil tayyorgarlik ko'radilar. Bunday yondoshuvdan o'quv materiali ancha yengil o'quvchilar ularni mustaqil o'zlashtirish imkoniyati bo'lganda qo'llaniladi. Bunday seminar darsining didaktik maqsadi o'quvchilar avval o'zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda qo'llab bilimlarni o'zlashtirishga erishishdir.

An'anaviy ta'lif texnologiyaga asoslangan darslarning bir turi bo'lgan seminar darslarining borishini takomillashtirish, o'qitish samaradorligini orttirish, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish maqsadida, mazkur darslarda hamkorlikda o'qitish texnologiyasi metodlaridan foydalanildi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarini faqat birgalikda bajarish emas, balki o'quvchilarni hamkorlikda o'qishga o'rnatish, ular o'rtaсиda o'zaro hamkorlik, o'zaro yordam va fikr almashinuvni vujudga keltirishdir.

O'qituvchi biologiya darslarida hamkorlikda o'qitish texnologiyasining komandada o'qitish, «zigzag» yoki «arra», birgalikda o'qiymiz, kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodlaridan foydalanish uchun har bir metodning didaktik maqsadini anglagan holda o'quv topshiriqlarini tuzadi va o'z o'rниda foydalanish yo'llarini belgilaydi.

Seminar darslarida hamkorlikda o'qitish texnologiyasidan foydalanish har bir o'quvchini kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rnatish, ularda mustaqillikni tarbiyalash, har bir o'quvchida shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z qobiliyati va bilimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda ma'suliyat hissini shakllantirishga imkon yaratadi. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi o'quvchilarni komandada, kichik guruhlarda o'qitishni nazarda tutadi. Shu sababli o'quvchilar har bir o'quvchining tahsil olishdagi muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o'quv topshiriqlarini to'liq va sifatli bajarishga, o'quv materialini puxta o'zlashtirishga, o'rtoqlariga hamkor bo'lib, o'zaro yordam

uyushtirishga zamin yaratiladi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining komandada o'qitish metodidan foydalanishda o'qituvchi o'quvchilarini teng sonli komandalarga ajratadi. Hamma komanda bir xil topshiriqniga bajaradi. Komanda a'zolari mavzu bo'yicha tavsiya etilgan o'quv topshiriqlarini hamkorlikda bajarib, mavzudan ko'zda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtiradilar.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining komandada o'qitish metodidan «Hayot tushunchasi. Hayotning paydo bo'lishi haqidagi nazariyalar», «Yerda hayotning biokimyoiy evolyutsiyasining mohiyati», «Arxey, proterozoy va paleozoy eralaridagi hayot», «Biogeosenozlar va ularning xususiyatlari. Oziq zanjiri va ekologik piramidalar» va boshqa mavzularni o'rganishda foydalanildi.

Mazkur metoddan foydalanib tashkil etilgan seminar darsi quyidagi tuzilishga ega bo'ladi:

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

II. O'tgan mavzu yuzasidan o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish va baholash.

III. O'quvchilarni dars mavzusi, maqsadi, borishi bilan tanishtirish.

IV. Yangi mavzuni o'rganish:

a) o'quvchilarni komandaga ajratib bir necha kichik guruhlarni tashkil etish hamda har bir komanda a'zolari tomonidan belgilangan o'quv topshiriqlarini mustaqil ravishda sifatli bajarilishiga erishish;

b) o'quv materiallarini yaxlit holda qayta ishlab chiqilishini amalga oshirish.

V. Yangi mavzu yuzasidan komandalar o'rtasida savol-javob, o'quv bahsi uyuştirish.

VI. O'quvchilar bilimini test savollari yordamida nazorat qilish va baholash.

VII. Yangi mavzuni qayta ishlash va yakunlash.

VIII. Uyga vazifa berish.

Seminar darslarida hamkorlikda o'qitish texnologiyasining «arra» yoki «zigzag» metodidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu metoddan o'quvchilardan 6—8 kishidan iborat kichik guruhlar tashkil etiladi. Dars davomida o'rganiladigan mavzu mantiqan tugallangan qismlarga ajratiladi. Mavzuning har bir qismi bo'yicha o'quv topshiriqlari tuziladi. Kichik guruhdagi o'quvchilar mazkur topshiriqlarning bittasini bajaradi va mavzuning shu qismi bo'yicha «mutaxassis»ga aylanadi. So'ngra guruhlar qayta tashkil etiladi. Bu guruh «mutaxassislar uchrashuvi» guruhi deb atalib, ularda mavzuning har bir qismi bo'yicha bittadan «mutaxassis»

bo'lishi shart. «Mutaxassislar uchrashuvi» guruhida har bir mutaxassis mavzuning o'zi egallagan qismi bo'yicha bilimlarini arra tishi ketma-ket kelgani kabi galma-galdan bayon etib hamkorlarini o'qitadi. Shu tariqa mazkur guruhdan o'quv materiali mantiqiy ketma-ketlikda qayta ishlab chiqiladi. O'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlari shu guruhda nazorat qilinadi va baholanadi. Har bir guruhning to'plagan umumiy ballariga muvofiq holda g'olib guruh aniqlanadi.

«Arra» metodidan «Evolyutsion tushunchalarning paydo bo'lishi», «Evolyutsiyani isbotlashda embriologiya, solishtirma anatomiya va paleontologiya fan dalillari», «Evolyutsion jarayonning turli yo'nalishlari», «Abiotik omillar. Iqlim omillari» va boshqa mavzularni o'rganishda foydalanish yo'llari ishlab chiqildi.

Mazkur seminar darsi quyidagicha tashkil etiladi:

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

II. O'quvchilarни dars mavzusi, maqsadi, borishi bilan tanishtirish va ularning faoliyatini o'quv topshiriqlarini bajarishga yo'llash.

III. Yangi mavzuni o'rganish.

a) «mutaxassislar» guruhi tomonidan belgilangan o'quv topshiriqlarini sifatli bajarilishiga erishish.

b) «mutaxassislar uchrashuvi» guruhini tashkil etish va mazkur guruhlarda «mutaxassis»lar yordamida o'quv materialining yaxlit holda qayta ishlab chiqilishini amalga oshirish.

IV. Yangi mavzu yuzasidan savol-javob, o'quv baxsi uyushtirish.

V. O'quvchilar bilimini test savollari yordamida nazorat qilish va baholash.

VI. Darsni yakunlash va uuga vazifa berish.

Biologiyani o'qitishda ta'lif-tarbiya jarayonida hukmronlik qilayotgan an'anaviy darslarni zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali takomillashtirish maqsadga muvofiq. Shuni nazarda tutgan holda an'anaviy darslarda hamkorlikda o'qitish texnologiyasining kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish metodidan foydalanish yo'llari ishlab chiqildi. Ushbu metodning qulay tomoni o'qituvchi avval reja asosida ko'rgazmali materiallar yordamida, yangi mavzuni bayon etadi, so'ngra o'quvchilarning kichik guruhlarda hamkorlikda mustaqil ishi tashkil etiladi. Mazkur darslardan mavzu mazmuni murakkab bo'lib o'quvchilar ularni mustaqil o'zlashtirishga qiyinchilik sezadigan hollarda foydalanish maqsadga muvofiq. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining kichik guruhlarda o'qitish metodidan «Evolyutsiyani isbotlashda molekulyar biologiya fani dalillari», «Genetik injeneriya haqida tushuncha. Irsiyatning moddiy asoslarini o'rganish tarixi», «Ko'chib yuruvchi genetik elementlar

va plazmidlar» va boshqa mavzularni o'rganishda foydalanildi. Mazkur dars quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

II. O'tgan mavzu yuzasidan o'quvchilarning bilimlarini test savollari yordamida nazorat qilish va baholash.

III. O'quvchilarni dars mavzusi, maqsadi, borishi bilan tanishtirish.

IV. Yangi mavzu bo'yicha o'qituvchining axboroti:

V. O'quvchilarni kichik guruhlarga ajratish hamda o'quv topshiriqlarini mustaqil ravishda sifatli bajarilishiga erishish.

VI. O'quvchilar bilimini test savollari yordamida nazorat qilish va baholash.

VII. Yangi mavzuni qayta ishlash va yakunlash.

VIII. Uyga vazifa berish.

Bioliyani o'qitishda foydalaniladigan didaktik o'yin texnologiyasi o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, darslik va qo'shimcha adabiyotlar ustida mustaqil ishlash, nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirish, ularni ongli ravishda kasbga yo'llash, didaktik o'yin davomida vujudga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf etishda mo'ljalni to'g'ri olish, har xil vaziyatlarni tahlil qilib to'g'ri xulosa yasashga zamin tayyorlaydi.

Didaktik-o'yin texnologiyalari ta'lim-tarbiya jarayoniga didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Didaktik o'yinli darslar o'quvchilarning bilim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unligi, mazmuni va mohiyatiga ko'ra syujetli-rolli o'yinlar, taqdimot, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlar o'yini, konferensiyalar va o'yin mashqlarga ajratiladi. Har bir didaktik o'yinli darslarning didaktik maqsadi, o'ziga xos xususiyatlari, ta'lim-tarbiya jarayonida tutgan o'rni, mazmuni biologiya darslari misolida ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilgan.

Bioliyani o'qitishda «Kirish», «Ekologiya fani, uning vazifalari va o'rganish usullari» mavzularini o'rganishda taqdimot darsidan foydalanish tavsiya etildi.

O'qituvchi ushbu darslarni tashkil etishdan avval, o'quvchilar guruhi bilan muayyan tayyorgarlik ishlarini olib boradi. O'quvchilarga biologiya fani sohasida ishlayotgan «olimlar» maqomini berib, ular zimmasiga tegishli muammolar bo'yicha axborot to'plash va o'quvchilarni tanishtirish vazifasi yuklatiladi.

O'qituvchi darsning tashkiliy qismidan so'ng, o'quvchilarning avvalgi mavzulardan o'zlashtirgan bilimlarini faollashtiradi, so'ngra o'quvchilarni dars mavzusi, maqsadi, borishi bilan tanishtiradi. Shundan so'ng, mavzuga tegishli muammolar bo'yicha taqdimot boshlanadi. «Olimlar» maqomini olgan o'quvchilar navbat bilan o'quvchilarni o'zлari izlangan va to'plangan

ma'lumotlar bilan tanishtiradi.

O'qituvchi taqdimot tugagandan so'ng, darslikda berilgan topshiriqlar asosida o'quvchilarining mustaqil ishlarini tashkil etadi.

Konferensiya darslaridan «Abiotik omillar. Tuproq va topografik omillar», «Tabiatda mavsumiylik. Muhitning biotik omillari», «Turlarni muhofaza qilish», «Hayvonlar irsiyatini hujayra injeneriyasi yo'li bilan o'zgartirish gibridomalar olish», «Biotexnologiya haqida tushuncha. Biotexnologiya yutuqlari va kelajagi» mavzularini o'rghanishda foydalanildi. Konferensiya darslarida sinfdagi barcha o'quvchilarining ishtirokini ta'minlash maqsadida matbuot konferensiyasidan ham foydalanish mumkin Bu holda o'quvchilarining ma'lum guruhlari «olimlar», qolganlari «muxbirlar» rolini bajaradi. O'qituvchi har ikkala guruh bilan alohida tayyorgarlik ishlarini olib boradi.

O'quvchilarining bilish faoliyatini faollashtirishda didaktik o'yin-mashqlardan foydalanish muhim rol o'ynaydi. Biologiya o'quv kursini yakunlash, o'quvchilarining o'zlashtirgan bilimlarini umumlashtirish va ularda uchraydigan tipik xatoliklarga barham berish maqsadida «Evolyutsion ta'lilot», «Evolyutsiya dalillari», «Yerda hayotning paydo bo'lishi va tarixiy taraqqiyoti», boblari, «Ekologiya asoslari», «Biosfera va uning evolyutsiyasi», «Genetik injeneriya va biotexnologiya» boblarini yakunlash yuzasidan o'tkazilgan umumlashtiruvchi darslarda «Zakovat» o'yinidan foydalanildi.

O'quvchilarda darslik, ilmiy-ommabop va qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishslash ko'nkmalari, ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish maqsadida modulli ta'lif texnologiyalaridan foydalaniladi. Modulli ta'lif texnologiyasining o'ziga xos jihatni o'qituvchi o'rganilayotgan mavzu bo'yicha o'quvchilarining mustaqil va ijodiy ishslashiga imkon beradigan modulli dastur tuzadi. O'quvchilar modul dasturi yordamida mustaqil va ijodiy ishlab darsning ta'limi, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadiga erishadilar.

Modul dasturlari o'rganilayotgan mavzu yuzasidan o'quvchilar bajarishlari lozim bo'lgan topshiriqlar, ularni bajarish bo'yicha ko'rsatmalarni o'zida mujassamlashtiradi. O'qituvchi modulli dasturlarning didaktik maqsadidan kelib chiqib biologiya darslarida foydalanishi yuqori samara beradi.

Shuni qayd etish kerakki, modul dasturi bu dars matni va o'qituvchi tomonidan o'quv materialini rejalashtirish emas, balki o'quvchilarining u yoki bu mavzuni mustaqil o'rghanish bo'yicha o'quv faoliyati dasturidir. O'qituvchi biologiyani o'qitishda modulli darslardan foydalanganda nafaqat modul dasturini tuzadi, balki dars davomida qaysi modul dasturidan foydalanishni aniqlaydi, avvalgi mavzu va yangi mavzu bo'yicha o'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash uchun test topshiriqlarini tayyorlaydi.

Modul dasturlari mazmuni va mohiyatiga ko'ra, o'quvchilarning individual, ikkita o'quvchi birgalikda va kichik guruhlarda hamkorlikda ishlashiga mo'ljallangan modul dasturlariga ajratiladi:

— o'quvchilarning individual ishlashi uchun mo'ljallangan modul dasturlari har bir o'quvchining iqtidori, qiziqishi, bilim saviyasi, o'zlashtirish darajasini aniqlash va orttirish, kitob ustida mustaqil va ijodiy ishlash, o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirish;

— ikkita o'quvchi hamkorlikda ishlashiga mo'ljallangan modul dasturlari yuqorida qayd etilganlardan tashqari, o'quvchilarning bir-birini o'qitish, o'zaro hamkorlikda o'quv topshiriqlarini bajarishi va muammolarni hal etishi, o'zaro nazoratni amalga oshirishi, o'zaro yordamni uyshtirish;

— o'quvchilarning kichik guruhlarda hamkorlikda ishlashiga mo'ljallangan modul dasturlari yuqoridagilar bilan bir qatorda o'quvchilar o'rtaida muloqot, o'quv bahsi va munozara, o'zaro hamkorlik va yordamni amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Biologiyani o'qitishda modulli darslardan foydalanishning quyidagi afzalliklari borligi aniqlandi:

— dars modul dasturi talablari asosida olib boriladi;

— vaqtidan samarali foydalaniladi;

— o'quvchilar tomonidan o'quv materiali yuqori darajada o'zlashtirilishiga, darslik ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon yaratiladi.

— o'quvchilarning yakka, juft holda va kichik guruhlarda mustaqil ishlarning tashkil etilishi ular o'rtaida do'stona muloqot, o'zaro yordam, hamkorlik vujudga kelishiga, nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirishga zamin yaratiladi. Har bir o'quvchi o'z qiziqishiga muvofiq, iqtidoriga asoslangan holda bilimini oshirish maqsadida mustaqil va ijodiy ishlab, bilimlarni o'zlashtirish usulini egallyadi.

— Darsda o'z-o'zini nazorat, o'zaro nazorat va o'qituvchi nazoratini amalga oshirish mumkin.

Modulli darsning borishi quyidagicha bo'ladi:

I. Tashkiliy qism.

II. O'tgan mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimini test savol-topshiriqlari yordamida aniqlash va baholash.

III. O'quvchilarni dars mavzusi, maqsadi, borishi bilan tanishtirish va ularning faoliyatini o'quv topshiriqlarini bajarishga yo'llash.

IV. Yangi mavzuni o'rganish:

a) yangi mavzu bo'yicha tuzilgan modul dasturini tarqatish va o'quvchilarni modul dasturining didaktik maqsadi bilan tanishtirish;

b) o'quvchilarning faoliyatini modul dasturidagi o'quv topshiriqlarini mustaqil bajarishga yo'llash;

d) har bir o'quv faoliyati elementi topshiriqlarining to'liq bajarilishini nazorat qilish, tegishli ko'rsatmalar berish;

e) har bir o'quv faoliyati elementi yakunida savol-javob yoki munozara o'tkazish.

V. Yangi mavzu yuzasidan test savollari yordamida o'quvchilar bilimini aniqlash.

VI. Modul dasturini yakunlash.

VII. Uyga vazifa berish.

«Darvin ta'lomitining mohiyati», «Mezozoy va Kaynozoy eralaridagi hayot», «Biosfera evolyutsiyasi. Biogenez. Noogen. Noosfera», «Rekombinat DNK olish. Genlarni klonlash» mavzularini o'rganishda modulli darslardan foydalanish tavsiya etildi.

Biologiya o'quv dasturidan o'rın olgan muammoli mavzular muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda muammoli dars «aqliy hujum» shaklida o'rganiladi. Shuningdek, ba'zi mavzular munozarali dars shaklida o'rganilishi maqsadga muvofiq. Ta'lim jarayonida munozarali darslarning 2 xili: ilmiy munozara darslari va erkin fikrlash darslaridan foydalaniladi.

Biologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan muvaffaqiyatli foydalanishning muhim sharti ta'lim-tarbiya jarayonida teskari aloqani amalga oshirish, ya'ni o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish va baholash, ularning javoblaridagi tipik xatoliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlash, olingan natijalarga muvofiq holda dars ishlanmalariga tegishli o'zgartirishlar kiritish, ularni takomillashtirish sanaladi.

Har bir dars ishlanmalarida o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini ikki marta, o'tgan va yangi mavzu yuzasidan test topshiriqlari vositasida nazorat qilish va baholash nazarda tutildi. Mazkur nazorat o'quvchilarning o'quv faniga bo'lgan qiziqishlari, bilimlarini muntazam ravishda orttirish, o'quv materialini ongli o'zlashtirish va mustahkamlanishiga zamin yaratadi.

O'qituvchi muayyan mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholashda test topshiriqlarini tuzishi lozim. Quyida «Evolyutsiyani isbotlashda embriologiya va solishtirma anatomiya, paleontologiya fani dalillari» mavzusi bo'yicha tuzilgan test topshiriqlari namuna tarzida berilmoxda.

«Evolyutsiyani isbotlashda embriologiya va solishtirma anatomiya, paleontologiya fani dalillari» mavzusi bo'yicha o'quvchilarning bilimlarini aniqlash uchun tuzilgan test topshiriqlari:

1. Embrional rivojlanishning izchilligini aniqlang.

A. Oldin katta, keyin kichik sistematik birliklarga xos belgilar rivojlanadi.

B. Oldin kichik, keyin katta sistematik birliklarga xos belgilar rivojlanadi.

- C. Belgilar umumiyligidan xususiylik tomon ajralishi ro'y beradi.  
D. Belgilar xususiylikdan umumiylilik tomon ajralishi ro'y beradi.  
E. A va C javoblar.
2. Biogenetik qonunni kashf etgan olimlarni aniqlang.
- A. E. Gekkel, F. Myuller.  
B. E. Gekkel, Sh. Miller.  
C. Ch. Darwin, A.N. Seversev.  
D. A va B javoblar.  
E. Hamma javoblar to'g'ri.
3. Sudralib yuruvchilarning tangachalari qaysi to'qima hujayralaridan hosil bo'ladi?
- A. Epiteliy to'qima.  
B. Biriktiruvchi to'qima.  
C. Epidermis.  
D. Aralash to'qima.  
E. A va B javoblar.
4. Gomologik organlar ta'rifini toping.
- A. Bajaradigan funksiyasidan qat'iy nazar, tuzilishi va kelib chiqishi o'xshash bo'lgan organlar.  
B. Bir xil funksiyani bajaradigan, tuzilishi va kelib chiqishi o'xshash bo'lgan organlar.  
C. Tuzilishi va kelib chiqishidan qat'iy nazar o'xshash funksiyasini bajaradigan organlar.  
D. O'z ahamiyatini yo'qotgan va yo'qotish arafasida turgan organlar.  
E. Ajdod belgilaringin takrorlanish hodisasi.
5. Analogik organlarga ta'rif bering.
- A. Bajaradigan funksiyasidan qat'iy nazar, tuzilishi va kelib chiqishi o'xshash bo'lgan organlar.  
B. Bir xil funksiyani bajaradigan, tuzilishi va kelib chiqishi o'xshash bo'lgan organlar.  
C. Tuzilishi va kelib chiqishidan qat'iy nazar o'xshash funksiyasini bajaradigan organlar.  
D. O'z ahamiyatini yo'qotgan va yo'qotish arafasida turgan organlar.  
E. Ajdod belgilaringin takrorlanish hodisasi.
6. Rudiment organlar ta'rifini toping.
- A. Bajaradigan funksiyasidan qat'iy nazar, tuzilishi va kelib chiqishi o'xshash bo'lgan organlar.  
B. Bir xil funksiyani bajaradigan, tuzilishi va kelib chiqishi o'xshash bo'lgan organlar.  
C. Tuzilishi va kelib chiqishidan qat'iy nazar o'xshash funksiyasini bajaradigan organlar.  
D. O'z ahamiyatini yo'qotgan va yo'qotish arafasida turgan organlar.

- E. Ajdod belgilarining takrorlanish hodisasi.
7. Atavizmning ta'rifini toping.
- A. Bajaradigan funksiyasidan qat'iy nazar, tuzilishi va kelib chiqishi o'xhash bo'lgan organlar.
- B. Bir xil funksiyani bajaradigan, tuzilishi va kelib chiqishi o'xhash bo'lgan organlar.
- C. Tuzilishi va kelib chiqishidan qat'iy nazar o'xhash funksiyasini bajaradigan organlar.
- D. O'z ahamiyatini yo'qotgan va yo'qotish arafasida turgan organlar.
- E. Ajdod belgilarining takrorlanish hodisasi.
8. Rekonstruksiya metodini kashf etgan olimni toping.
- A. E. Gekkel.
- B. F. Myuller.
- C. F. Miller.
- D. J. Kyuve.
- E. Ch. Darvin.
9. Barcha ko'p hujayrali hayvonlar o'z shaxsiy taraqqiyotini nimadan boshlaydi?
- A. Urug'lanmagan tuxum hujayradan.
- B. Urug'langan tuxum hujayradan.
- C. Hujayralarning bo'linishidan.
- D. Mitoz va meyoz bo'linishdan.
- E. Hamma javoblar to'g'ri.
10. Filembriogenez nazariyasining muallifini toping.
- A. E. Gekkel.
- B. F. Myuller.
- C. A.N. Seversev.
- D. I. Sechenov
- E. Ch. Darwin.
- «Evolutsiyani isbotlashda embriologiya va solishtirma anatomiya, paleontologiya fani dalillari» mavzusi bo'yicha o'quvchilarning bilimlarini aniqlash uchun tuzilgan test topshiriqlarining javoblari.

Test 1	A	B	C	D	E	Test 1	A	B	C	D	E
1.				X		6.				X	
2.	X					7.					X
3.				X		8.				X	
4.	X					9.		X			
5.			X			10.			X		

O'qituvchi mazkur jarayonni jadallashtirish, vaqtidan yutish maqsadida o'quvchilarning javob varaqasini tayyorlashi va uni test topshiriqlari bilan birgalikda o'quvchilarga tarqatishi lozim.

«Evolutsiyani isbotlashda embriologiya va solishtirma anatomiya,

paleontologiya fani dalillari» mavzusi bo'yicha

o'quvchilarning javob varaqasi

O'quvchining ismi, sharifi \_\_\_\_\_

Guruh \_\_\_\_\_

Testlar soni \_\_\_\_\_

Test <sup>1</sup>	A	B	C	D	E	Test <sup>1</sup>	A	B	C	D	E
1.						6.					
2.						7.					
3.						8.					
4.						9.					
5.						10.					

To'g'ri javob berilgan testlar soni \_\_\_\_\_

To'plagan bali \_\_\_\_\_

O'qituvchi to'g'ri javoblar berilgan jadvaldagি katakchalarni kesib oladi va uni o'quvchilarning javob varaqasi ustiga qo'yadi. Shu tarzda qisqa vaqt ichida sinfdagi barcha o'quvchilarning to'plagan ballarini aniqlaydi. Zarur hollarda bu vazifa kichik konsultantlar zimmasiga yuklanishi ham mumkin.

O'quvchilarning avval o'rganilgan va dars davomida o'rganilayotgan obyektlar o'rtasidagi umumiylig, o'rganilayotgan obyektning o'ziga xos tomonlarini aniqlashi, eng muhim jihatlarini o'rganishi va avval o'zlashtirgan bilimlarini yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llashga o'rgatish, ularning ijodiy va mustaqil fikrlashini rivojlantirish maqsadida muayyan mavzular bo'yicha jadvallarni to'ldirish yuzasidan mustaqil ish topshiriqlari berildi. Jumladan, «Organizmlarning moslashganligi va ularning nisbiyligi» mavzusida o'simliklar va hayvonot olamidagi moslanishlarni taqqoslash, «Evolyutsiyani isbotlashda biogeografiya fan dalillari» mavzusida biogeografik viloyatlardagi o'simlik va hayvonot olamini taqqoslash, shuningdek, «Arxey, proterozoy va paleozoy eralaridagi hayot» mavzusida era va davrlarda o'simlik va hayvonot olamidagi o'zgarishlarni, «Genetik injeneriya haqida tushuncha. Irsiyatning moddiy assoslарini o'rganish tarixi» mavzusida transformatsiya va transduksiya jarayonlarini taqqoslash tavsiya etildi.

O'quvchilarning bilish faoliyatining shu yo'sinda tashkil etilishi o'quvchilarning ehtiyoji, qiziqlishi, bilim saviyasi, psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularga tavofutlab yondoshish, dars samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Biologiyani o'qitish samaradorligi darslar bilan bir qatorda laboratoriya mashg'ulotlari va ekskursiyalarni talablar darajasida o'tkazilishiga bog'liq bo'ladi. O'quv dasturida «Turning morfologik mezonlari bilan tanishish», «O'simliklarda idioadaptatsiyani o'rganish» mavzulari bo'yicha

laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish ko'zda tutilgan. Ushbu laboratoriya mashg'ulotlarining didaktik maqsadi o'quvchilarning tegishli mavzulari bo'yicha o'zlashtirgan nazariy bilimlarini mustahkamlash, ularni amaliyotga qo'llashga o'rgatish orqali samaradorlikka erishish sanaladi.

Laboratoriya mashg'ulotlari quyidagi bosqichlar asosida tashkil etildi.

I. O'quvchilarni laboratoriya mashg'ulotining maqsadi, borishi va bajariladigan topshiriqlar bilan tanishtirish.

II. O'quvchilarni kichik guruhlarga ajratish va ularga o'quv topshiriqlarini tavsiya etish.

III. O'quvchilarning kichik guruhlarda mustaqil ishini tashkil etish.

IV. Kichik guruhlarning o'quv topshiriqlari yuzasidan axborotini tinglash.

V. Laboratoriya mashg'ulotini yakunlash.

O'quv dasturidan o'r'in organ sun'iy tanlash natijalarini o'rganish maqsadida «Chorvachilik yoki parrandachilik fermer xo'jaligiga ekskursiya», «Tabiatda yashash uchun kurash bilan tanishish» maqsadida o'tkaziladigan ekskursiyalarda o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish yo'llari, o'quvchilarning kichik guruhlari tomonidan bajariladigan o'quv topshiriqlari ishlab chiqildi. Mazkur ekskursiyalar quyidagi tartibda tashkil etildi:

Ekskursiyaning borishi:

I. O'quvchilarni ekskursiyaning maqsadi, borishi, kuzatiladigan va bajariladigan topshiriqlar bilan tanishtirish.

II. O'quvchilarni kichik guruhlarga ajratish va ularga o'quv topshi-riqlarini bajarish yuzasidan tavsiyalar berish.

III. O'quvchilarning kichik guruhlarda mustaqil ishini tashkil etish.

IV. Kichik guruhlarning topshiriqlar yuzasidan axborotini tinglash.

V. Ekskursiya mobaynida kuzatilgan o'simlik va hayvonlardagi yashash uchun kurash xillari, ularning o'ziga xos belgilari bo'yicha hisobot tayyorlash.

VI. Ekskursiyani yakunlash.

VII. O'quvchilarga ekskursiyada o'rganilgan materiallarga oid gerbariyalar, kolleksiyalar va axborot tayyorlash haqida topshiriq berish.

O'qitish samaradorligi o'quvchilarning darsdan tashqari ishlarini talab darajasida tashkil etilishiga bog'iq.

O'quvchilarning darsdan tashqari ishlari mavzular bo'yicha uy vazifalarini bajarish, muayyan mavzular bo'yicha kuzatish va tajriba o'tkazish, qo'shimcha o'quv adabiyotlari ustida mustaqil ishlash kabilarni o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, o'rta maxsus, kasb ta'limi muassasalarida biologiya o'quv fanini o'qitishning samaradorligini oshirishning muhim sharti ta'lim-tarbiya jarayoniga tizimli yondoshuv sanaladi va o'qituvchilarga quyidagi dars

turlari tavsiya etiladi:

1. Ma'ruza (kirish ma'ruzasi, mavzuli ma'ruza, umumlashtiruvchi ma'ruza) darslari.
2. Seminar (bilimlarni mustahkamlovchi, yangi bilimlarni mustaqil egallahsha mo'ljallangan) darslari.
3. Modulli dars.
4. Muammoli (aqliy hujum) darslar.
5. Didaktik-o'yinli (syujetli-rolli, ijodiy, ishbilarmonlar, konferensiyalar, o'yin mashqlar) darslar.
6. Sinov (didaktik kartochkalar, test topshiriqlari, o'zaro nazorat varag'i yordamida, EHM nazorat dasturlari vositasida o'tkaziladigan) darslar.
7. Amaliy mashg'ulotlar.
8. Laboratoriya mashg'uloti.
9. Ekskursiya.
10. Umumlashtiruvchi darslar.

### SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLAR

O'quvchilarning fan asoslarini chuqur va mustahkam o'zlashtirishlariga erishish, qo'shimcha o'quv adabiyotlari, ko'rgazmali vositalar yordamida mustaqil ishlarini tashkil etish, belgilangan mavzular bo'yicha kuzatish va tajribalar o'tkazish, o'quvchilarning qiziqishlari va bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga oлgan holda tabaqa lashtirilgan ta'limni tashkil etish, ularning ijodiy qobiliyatlari, mustaqil va mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, kasbga yo'llash, o'qishni unumli jismoniy va aqliy mehnat bilan uzviy bog'lash maqsadida umumiy biologiyadan sinfdan tashkari mashg'ulotlar o'tkaziladi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning uch xil turi mayjud:

1. Ayrim o'quvchilar bilan yakka tartibda olib boriladigan mashg'ulotlar.
2. O'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan mashg'ulotlar.
3. O'quvchilar bilan ommaviy ravishda olib boriladigan mashg'ulotlar.

Yuqorida qayd etilgan sinfdan tashqari mashg'ulotlarning turlari bir-biri bilan uzviy bog'langan, bir-birini to'ldiradi va taqoza etadi.

Ayrim o'quvchilar bilan olib boriladigan sinfdan tashqari mashg'ulotlar ularning xohish, istagi, ehtiyoji va qiziqishlari hisobga olingan holda biologiya o'quv xonasida, tirik tabiat burchagida, mакtab tajriba maydonida, informatika xonasida, jamoa va fermer xo'jaligi dalalarida o'tkazilishi mumkin. Ushbu mashg'ulotlar o'quvchilarning qo'shimcha o'quv adabiyotlarini o'rganish, EHMning ta'lim beruvchi, modellashtirilgan, nazorat dasturlari yordamida bilimlarini sinab ko'rish, multimedialar

vositasida ijodiy izlanishlarini tashkil etish, sinov — tajriba maydonlarida belgilarning irsiylanishini o'rganish maqsadida kuzatish va tajribalar o'tkazish, ma'ruzalar va ko'rgazmali materiallarni tayyorlash kabilarga bag'ishlanadi.

O'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan sinfdan tashqari mashg'ulot-larga biologiya o'quv xonasini jihozlash, o'quv jarayoni uchun zarur bo'lgan ko'rgazmali vositalar tayyorlash va «Yosh biologlar» to'garagining ishi misol bo'ladi.

Quyida «Yosh biologlar» to'garagining namunaviy ish rejasi berilmoqda.

Mazkur to'garakning namunaviy ish rejasini o'qituvchi o'z bilimi, pedagogik mahoratiga tayanib to'ldirishi va o'zgacha sayqal berishi, mahalliy sharoit va o'quvchilarning qiziqishi va ehtiyoji hisobiga tegishli o'zgartirishlar kiritishi va amaliyotga qo'llashi mumkin.

Umumiy biologiyadan o'quvchilar bilan ommaviy ravishda olib boriladigan mashg'ulotlarga turli mavzulardagi kechalar, bayramlar, ma'ruzalar, «O'tkir zehnlilar mushoirasi», viktorina va mushoiralar o'tkazish, O'zbekiston qahramonlari va olimlari bilan uchrashuvlar tashkil etish misol bo'ladi.

Shuningdek, «O'zbekiston ekolog olimlarining fan taraqqiyotiga qo'shgan hissalarisi», «O'zbekistonda biotexnologiya va genetik injeneriya fani yutuqlari va kelajagi», «Allomalar nazmida ekologiya», «Orol dardi — olam dardi» mavzulari bo'yicha ommaviy kechalar o'tkazish tavsiya etiladi.

Jumladan, «Allomalar nazmida ekologiya» mavzuidagi ommaviy kecha quyidagi reja asosida olib boriladi:

1. O'qituvchining kirish so'zi. U o'z so'zida ulug' allomalar Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Boburlarning boy ma'naviy meroslari, ularning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissalarini qayd etib, o'quvchilarni ularning munosib vorislari bo'lishga undaydi va ularning asarlarida ekologik muammolarga katta e'tibor berilganligi, bugungi kecha ulug' allomalarning ekologik qarashlarini o'rganishga bag'ishlanishini ma'lum qiladi.

1. Abu Rayhon Beruniyning ijodida ekologiya.
2. Abu Ali ibn Sinoning ekologik qarashlari.
3. Alisher Navoiy asarlarida ekologiya muammolari.
4. Sohibqiron Amir Temurning ekologik dunyoqarashi.
5. Mirzo Ulug'bekning dunyo sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi.
6. Zahiriddin Muhammad Boburning ekologiya fanining rivojiga qo'shgan hissasi.

Mash. g'ulot	Mase'ular	O'tkachish usqali	O'tkachish joyi	Javobgar chaxo
1.	Tur'killy mase'ular: a) Tur'killy biologiya bo'yinchligini ta'min etishga qoldamda qilib va tur'diq bosh. b) To'g'rnak tur'killy qismidasi va radioteknich. c) To'g'rnak tur'killy qismidan oltin oqjan mase'ular bo'yicha tibor va ushbu barcha tazhibish.	sentabz	Biologiya s'iqu so'rovil	O'rtauchik
2.	Tadqiqatxonalik farrning barraqqiyoti ga hizqa qo'shigan sifobdaridagi mase'ular organistik.	shabz	Biologiya s'iqu so'rovil	O'rtauchik va to'g'rnak xit'charl
3.	«Oral dard» — oban dardli mase'ular bo'yicha kuchaga bayrog'artik borish. a) Kuchalar manzilini bayroqdash va mase'ularni qilib; b) Biologiya s'iqu so'rovil va bayram o'sebasligiga joyish boshish.	noyabz	Biologiya s'iqu so'rovil	O'rtauchik va to'g'rnak xit'charl
4.	Biologiya va tabiatni sanash bo'yicha kilmasdi hiloyalar va hediyani o'sebish.	daklar	Biologiya s'iqu so'rovil	O'rtauchik va to'g'rnak xit'charl
5.	Orta Osiyo allomembrining ekologiya s'izayberishini organistik mase'ulidagi allomembrasiya ekologiyasi mase'ular kuchaga bayrog'artik borish.	yaxlar	Tink tabiat bundag'i	To'g'rnak xit'charl

Jadvalning davomi

Mashg'ulot	Mavzular	O'tkazish vaqtি	O'tkazish joyi	Javobgar shaxs
6.	O'zbekiston Respublikasining tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini o'rGANISH. a) Respublikada feoliyat ko'satajotgan «EK OSAN» jang'ernesi haqidagi ma'lumot. b) O'zbekistonning noyob o'sinlik va hayvonlarining Biologiyesini o'rGANISH.	fevral	Biologiya o'quv xonesi	To'g'erek si'olari
7.	«Navro'z bayramini o'tkazishga tayyorlarlik ko'rish. a) Eng yaxshi ko'rgazmali vositalar, devoriy gazeteler, ko'rgazmalar tanlovini o'tkazish; b) ma'ruzalar tayyorlash; d) bayram ssenariysini tayyorlash va uni muhokama qilish; e) Biologiya o'quv xonesi va bayram o'tkaziladigan joyni beratish.	mart	Biologiya o'quv xonesi	O'qituvchi va to'g'erek si'olari
8.	«O'zbekistonda biotexnologiya va genetik injeneriya fani yutuqlari va kelajagi» mavzusi bo'yicha kechaga tayyorlarlik ko'rish. a) Kechaga bog'ishlangan eng yaxshi devoriy gazetalar va ko'rgazmalar tanlovini o'tkazish; b) ma'ruzalar tayyorlash; d) kecha ssenariysini tayyorlash va uni muhokama qilish; e) Biologiya o'quv xonesi va bayram o'tkaziladigan joyni beratish.	aprel	Biologiya o'quv xonesi	O'qituvchi va to'g'erek si'olari
9.	To'g'arsaksiz amalga oshirilgan ishlarni yekunlash va kelgusi rejalarni belgilab dush.	nay	Biologiya o'quv xonesi	To'g'erek si'olari

Biologiya o'qituvchisi muktab pedagogik jamoasi bilan mazkur mavzuli kechani mazmunli o'tkazishi borasida hamkorlikda ish olib borishi, mavzuga tegishli sahna ko'rinishlari, adabiy-badiiy chiqishlarni tayyorlashi, ekologiyaga oid hikmatli hikoyalar, rivoyatlar, hadislar va maqollar to'plashi, ular asosida kecha ssenariysini tayyorlashi lozim.

«O'zbekiston ekolog olimlarining fan taraqqiyotiga qo'shgan hissalari», «O'zbekistonda biotexnologiya va genetik injeneriya fani yutuqlari va kelajagi» mavzularidagi mavzuli kechalarga ilmiy-tadqiqot institutlari, ularning filiallari bilan hamkorlikda ish olib borishi, fan rivojiga hissa qo'shgan olimlarning ishlari bilan yaqindan tanishishi, kechani o'tkazish rejasini tuzishi va ma'ruzalar mavzusini tanlashi lozim. Shu bilan birga, kecha mavzusiga bog'liq holda olimlarning chop etgan ilmiy ishlari, o'quv,

ilmiy-ommabop adabiyotlarning ko'rgazmasi, mustaqillik davrida qo'lga kiritilgan yutuqlar va istiqboldagi rejalar aks ettirilgan devoriy gazetalar, kechada ishtirok etadigan olimlarning hayot faoliyati va fan rivojiga qo'shgan hissalari haqida ma'ruzalar tayyorlanishiga e'tiborni qaratishi zarur.

Ommaviy ravishda olib boriladigan mashg'ulotlar biologiyani o'qitish samaradorligini oshirish, o'quvchilarining ilmiy dunyoqarashi, fikr yuritish doirasini kengaytirish, qiziqishlari, mustaqilligi, nutq va muloqot mada-niyati, o'quv va amaliy mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish, o'quvchi yoshlar ongi va qalbiga milliy istiqlol g'oyalarini singdirish, ularni Vatan va mustaqillik prinsiplariga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarg'a hurmat ruhida tarbiyalashga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, biologiya o'qitishning samaradorligi dars, darsdan va sinfdan tashqari ishlar, ekskursiyalarni uzviy ravishda, ular o'rtaсидаги мантиқија bog'lanishlarni e'tiborga olgan holda tashkil etilishiga bog'liq bo'ladi.

## O'QUVCHI-YOSHLAR ONGI VA QALBIGA MILLIY ISTIQLOL G'OYASINI SINGDIRISH YO'LLARI

O'quvchilar ongi va qalbiga milliy istiqlol mafkurasini singdirish muammosi ta'lim-tarbiya jarayonida samarali usul va vositalardan foydalanishni taqozo etadi.

«Hozirgi murakkab sharoitda xalqimiz, avvalo, o'sib-unib kelayotgan yosh avlodimiz ongi va qalbida mafkuraviy immunitet hosil qilish muhim ahamiyatga ega. Bu ishni bamicoli yosh niholga mevali daraxt kurtagini payvand qiladigan usta bog'bondek noziklik va mehr bilan, oqilona yo'il bilan amalga oshirish lozim<sup>1</sup>».

O'quvchilar ongi va qalbiga milliy istiqlol mafkurasini singdirish ta'lim muassasalaridagi faqat ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdag'i fanlarning vazifasi bo'lib qolmasdan, balki o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv rejasidan o'rin olgan barcha o'quv fanlarining vazifasi sanaladi. Bu boradagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar keng ko'lamma olib borilib, ta'lim-tarbiya jarayonining barcha jabhalarida asosiy o'rinni egallashi lozim.

Xususan, biologiyani o'qitishda o'quvchilarda Vatan tuyg'usini shakllantirish — Ona-Vatanga, uning tabiatiga mehr-muhabbat uyg'o-tish va boyliklarini asrab-avaylash, tabiatdagi o'simliklar va hayvonlarga

<sup>1</sup> Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar va tamoyillar. Toshkent. «O'zbekiston» 2000-y. 7-bet.

nisbatan ongli va to'g'ri munosabatni tarkib toptirish, ekologik madaniyatni yuksaltirishni maqsad qilib qo'yadi.

«Hozirgi vaqtida eng muhim, eng dolzarb vazifamiz — jamiyatimiz a'zolarini, avvalambor, voyaga etib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirish, ularning qalbida milliy g'oya, milliy mafkura, o'z Vataniga mehr-sadoqat tuyg'usini uyg'otish, o'zligini anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iboratdir<sup>1</sup>».

Shunga ko'ra, hozirgi kunda har tomonlama kamol topgan, o'zida yuksak axloqiy fazilatlarni mujassamlashtirgan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, mustaqillik prinsiplari va Ona-Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalangan, ta'lif va kasb-hunar dasturlarini ongli tanlab, puxta o'zlashtirgan, jamiyatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga, turmushga moslashgan, sog'lom turmush tarzi va mehnat ko'nikmalari shakllangan, jamiyat, davlat va oila oldidagi o'z burchini his etadigan, ijodiy, erkin va mustaqil fikrlaydigan barkamol shaxslarni tarbiyalash dolzarb masala sanaladi.

O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatining ishchi guruhi tomonidan tayyorlangan «Milliy istiqlol g'oyasi: Asosiy tushunchalar va tamoyillar» risolasida qayd etilishicha, milliy istiqlol mafkurasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanadi, xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, an'ana va udumlari, ulug' bobokalonlarimizning o'lmas merosidan oziqlanadi.

O'quvchilar ongi va qalbiga milliy istiqlol g'oyasini singdirishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillari, xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, an'ana va udumlari, ulug' bobokalonlarimizning o'lmas merosi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli barcha ta'lif muassasaalari tayanch o'quv rejalariga o'quvchi-yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish, ta'lif-tarbiya jarayonini huqukiy demokratik jamiyat qurish tamoyillariga moslash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish o'quv kurslari kiritilgan. Ta'lif-tarbiya jarayoni va pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratizatsiyalash prinisi pi haqida avvalgi mavzularda gap yuritilgan edi.

Biologiyani o'qitish jarayonida o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, bu borada o'rganilayotgan mavzu mazmuniga bog'liq holda xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov. Hushyorlikka dav'at. Toshkent «O'zbekiston» 1999-yil 16-bet.

ma'naviy boyliklari, an'ana va udumlari, ulug' bobokalonlarimizning o'lmas merosidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nimalar kiradi? degan savol tug'ilishi tabiiy.

Milliy qadriyatlar alohida olingen xalq, millat va elatlarning o'z tarixiy taraqqiyoti davomida yaratgan va yaratadigan barcha moddiy va ma'naviy boyliklari, urf-odatlari, marosimlari, bayramlari va millatning o'zligini belgilaydigan o'ziga xos tamoyillari yig'indisidan iboratdir. Bu o'ziga xoslik moddiy, ma'naviy, ijtimoiy, oilaviy hayot, turmush tarzida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari xalq amaliy san'ati, xalq o'yinlari, rasm-rusumlari, urf-odatlari, marosimlari ham milliy qadriyatlarga kiradi.

Biologiyani o'qitishda o'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun dars, darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlar, hamda ekskursiyalarda mavzuga bog'liq holda mamlakatimizning yer osti va yer usti boyliklari, ulardan oqilona foydalanish borasida olib borilayotgan ishlar, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy rivojlanish tamoyillari, biologiya fanining rivojiga hissa qo'shgan allomalarning ma'naviy meroslari, tabiatni muhofaza qilishga oid hadislar, hikmatli hikoyalari, rivoyatlar, afsonalar va maqollardan foydalanish tavsiya etiladi.

Umuminsoniy qadriyatlar butun insoniyat rivoji davomida insonlar tomonidan yaratilgan va bebaho mulki sanalgan, moddiy va ma'naviy boyliklar, madaniy, ilmiy, falsafiy, axloqiy, estetik, huquqiy, siyosiy, badiiy, ekologik va h.k. qarashlar yig'indisi sanaladi.

Umuminsoniy qadriyatlar milliy qadriyatlar zaminida shakllanadi, ya'ni biror bir millatga mansub milliy qadriyatlar rivojlanib, yillar davomida sayql topib, takomillashib, boshqa millat va elatlar tomonidan e'tirof etilib, tan olinadi. Shu tariqa milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tariladi. Masalan, O'rta asrlardagi Sharq sivilizatsiyasi o'zbek xalqi uchun milliy qadriyat sanalsa, jahon xalqlari uchun umuminsoniy qadriyat sanaladi.

Biologiyani o'qitishda o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda e'tiborni quyidagilarga qaratish:

- insoniyatning paydo bo'lishi va rivojlanish tarixini o'rganish;
- buyuk allomalarning insoniyat tarixi va sivilizasiyasida tutgan o'rnini yoritish;
- umumbashariy mulkka aylangan ilmiy asarlarning yaratilish tarixini o'rganish;
- umumxalq bayramlarining tarixini o'rganish, o'tkazilishida milliy ruh kiritish;
- biologiya fanining rivojiga hissa qo'shgan buyuk olimlar hayotining ibratli tomonlarini ko'rsatish zarur.

Jumladan, «Evolyutsion ta’limot» bobini o’rganishda o’quvchilar ongi va qalbiga milliy istiqlol g’oyasini singdirish jarayonida milliy qadriyatlarimiz bo’lgan «Avesto» kitobining yaratilish tarixi, undagi tabiiyotshunoslikka va tabiatga nisbatan ongli munosabatda bo’lishga oid fikrlar, Ahmad ibn Jayxoni, Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug’bek, Zahiriddin Boburlarning asarlarida evolyutsion g’oyalarning yoritilishi va ularning jahon sivilizatsiyasiga qo’shgan hissalarini qayd etish orgali milliy g’ururni shakllantirish, Empedokl, Aristotel, Teofrast, Lukresiy Kar, Galen, K. Linney, J. Kyuve, J.B. Lamark, Ch. Darwinlarning evolyutsion nazariyaning yaratilishi va rivojlantirishga qo’shgan hissalarini bayon etib umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg’usini tarkib toptirish masalasi o’qituvchining diqqat markazida bo’lmog’i lozim.

O’quvchilar ongi va qalbiga milliy istiqlol g’oyasini singdirish samadarligini oshirish uchun o’qituvchi milliy mafkuraning bosh va asosiy g’oyalarni chuqr anglashi, olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishda mazkur g’oyalarga asoslanishi, o’quvchi-yoshlarni shu yuksak maqsadlarni amalga oshirishga safarbar etishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, o’quvchilar ongi va qalbiga milliy istiqlol g’oyasini sindirishda biologiya darslari, ekskursiyalar, darsdan va sinfdan tashqari mashg’ulotlarni samarali tashkil etish, mavzu mazmuniga bog’liq holda ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, mustaqillik prinsiplari va Ona-Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga katta e’tibor berish lozim.

## II QISM

### BIOLOGIYA DARSLARI

#### 1-dars

Darsning mavzusi: Kirish

Darsning ta'limiy maqsadi: O'quvchilarni biologiya fanining tekshirish obyekti, ilmiy tadqiqot metodlari, fanlar sistemasi, nazariy va amaliy ahamiyati bilan tanishtirish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: Biologiya fanining nazariy va amaliy ahamiyatini tushuntirish orqali o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, ekologik va aqliy tarbiya berish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: O'quvchilarning biologiya fanidan olgan assosiy biologik tushunchalari, o'quv adabiyotlari va darslik ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Darsni jihozlash: Biologiya fanlari sistemasi, metodlari jadvali.

Darsda foydalilanidigan texnologiya: Didaktik o'yin texnologiyasi.  
(Taqdimot darsi).

Asosiy tushunchalar va tayanch bilimlar:

Biologiya fanining o'rGANISH obyektlari va predmeti, fanlari sistemasi, hayotning tuzilish darajalari, ilmiy-tadqiqot metodlari, muammolar, biologiyaning nazariy va amaliy ahamiyati.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

II. O'quvchilarning umumta'lIM maktabida biologiya o'quv fanlaridan o'zlashtirgan bilimlarini faollashtirish.

III. O'quvchilarni dars mavzusi, maqsadi va borishi bilan tanishtirish.

IV. Yangi mavzuni o'rGANISH:

R e j a :

1. Biologiya fanini o'rGANISH obyektlari va predmeti;
2. Hayotning tuzilish darajalari,

3. Biologiya fanlari sistemasi;
4. Biologiyaning ilmiy-tadqiqot metodlari;
5. Biologiya fanidagi muammolar;
6. Biologiyaning nazariy va amaliy ahamiyati.

O'qituvchi ushbu darsni tashkil etishdan avval, o'quvchilar guruhi bilan muayyan tayyorgarlik ishlarini olib boradi. O'quvchilarga biologiya fani sohasida ishlayotgan «olimlar» maqomini berib, ular zimmasiga biologiya fanining o'r ganish obyektlari va predmeti, biologiya fanlari sistemasi, biologiyaning ilmiy-tadqiqot metodlari, biologiyaning nazariy va amaliy ahamiyati bo'yicha axborot to'plash va o'quvchilarni tanishtirish vazifasi yuklatiladi.

O'qituvchi darsning tashkiliy qismidan so'ng, o'quvchilarning avval o'quv fanlaridan o'zlashtirgan bilimlarini faollashtiradi, so'ogra o'quvchilarni dars mavzusi, maqsadi, borishi bilan tanishtiradi. Shundan so'ng biologiya fanining taqdimoti boshlanadi.

«Olimlar» maqomini olgan o'quvchilar navbat bilan o'quvchilarni biologiya fanining o'r ganish obyektlari va predmeti, biologiya fanlari sistemasi, biologiyaning ilmiy-tadqiqot metodlari, biologiyaning nazariy va amaliy ahamiyati bilan tanishtiradi.

O'qituvchi taqdimot tugagandan so'ng darslikda berilgan topshiriqlar asosida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etadi.

O'quvchilar o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish va baholash maqsadida quyidagi jadvalni to'ldirish tavsiya etiladi.

Biologiya fanining ilmiy-tadqiqot metodlari	Mazkur metodlar yordamida hal etiladigan muammolar
Kuzatish	
Taqqoslash	
Tarixiy	
Eksperimental	
Modellashtirish	

TEXNOLOGIK BOSQICHLAR	O'QITUVCHINING FAOLIYATI	O'QUVCHINING FAOLIYATI
I bosqich Tashkiliy qismi 5 deqiq	O'quvchilarni dars mənzusi, məqsedi, borishi bilan tarishtiradi.	Dars mənzusu, məqsedi, borishi va unda bejariledigan topshinglarni englaydi.
II bosqich O'quvchilarning biliş faoliyatini tashkil etdi. 5 deqiq	Təqdimot topshiriglarning didaktik məqsedi, bejariledigan o'quv topshiriglari bilan tarishtiradi.	Təqdimot topshiriglarning didaktik məqsedi, bejariledigan o'quv topshiriglari yuxasidan ko'rsatmamasi englaydi.
III bosqich Yangi mənzuni örganish. 60 deqiq	O'quvchilardan «olimlarni» guruhlarini va dəming müstəqil ishlini tashkil etdi. O'quv materialini topshiriglər yordamida müstəqil o'zashklılıshını təminlaydi. Har bir guruhning o'quv materiali yuxasidan təyyarəlegan mətrusalarını tingleydi.	O'z o'quv faoliyatini tashkil etdi. «Olimlarni» guruh topshiriglarni bejaredi. 1-guruh Biologiya fanning örganish obyektləri və predmeti; 2-guruh Heydning təwilish dərəjələri; 3-guruh Biologiya fəldi sistemasi; 4-guruh Biologyning iniyebadiqət metodları; 5-guruh Biologiya fəndigi nümunələri; 6-guruh Biologyning razılıy və analitik shəhəriyi. Har bir guruh o'quv materiali yuxasidan mətrusalar təyyarəlaydi. O'quvchilar bilan o'zəxiledigan sevəl-javob, o'quv behisidə rəsul işlərək etdi.
IV bosqich Erishilgan nəticəni təhlil qılış və yekunlaşdırma. 10 deqiq	Har bir mənzərə yekunnda o'quvchilar bilan sevəl-javob o'quv behisi etkəzədi. O'quvchilar faoliyətini təhlil qıldı, o'quvchilarga müstəqil və ijdölyi iş topshiriglərini berədi.	O'quvchilar bilan o'zəxiledigan sevəl-javob, o'quv behisidə rəsul işlərək etdi. O'z o'quv faoliyatı və erishilgan nəticəni təhlil qıldı və baholaydı. Müstəqil və ijdölyi iş topshiriglərinə etdi.

## I BOB. EVOLYUTSION TA'LIMOT

Mazkur bobning didaktik maqsadi o'quvchilarni evolyutsion tushunchalarining paydo bo'lishi tarixi, miloddan oldin yashagan tabiatshunoslarning tabiat to'qrisidagi tasavvurlari qadimgi Sharq mamlakatlari, qadimgi Yunoniston va Rim, Markaziy Osiyo olimlarini tabiiiyotshunoslikning rivojlanishiga qo'shgan hissalari, Ch. Darwin

ta'lilotining mohiyati, yashash uchun kurash, sun'iy tanlanish, tabiiy tanlanish, organizmlarning moslashishi va ularning nisbiyligi, tur evolyutsiyasining asosiy bosqichlari, evolyutsiyaning sintetik nazariyasini bilan tanishtirish sanaladi.

Ushbu bobni o'rganish uchun 20 soat o'quv dasturida vaqt ajratilgan bo'lib, mavzularni mashqulotlarga quyidagicha taqsimlash tavsiya etiladi:

Mavzular qo'shimcha raqami	Mavzu	Foydalilanildigan texnologiya
2.	Evolutsion tushunchalarning paydo bo'lishi.	Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi
3.	Evolutsion ta'lilotning tabiiy ilmiy va ijtimoiy-iqtisodiy asoslar	Didaktik o'yin texnologiyasi
4.	Darvin ta'lilotining mohiyati.	Modulli ta'lim texnologiyasi
5.	Chorvachilik yoki parrandachilik fanner xojaligiga eks kursiya	Eks kursiya
6.	Yashash uchun kurash va tabiiy tanlanish.	Uyqunlas higan dars
7.	Tabiatda yashash uchun kurash bilan tanishish.	Eks kursiya
8.	Organizmlarning moslashishi va ularning nisbiyligi	Didaktik o'yin texnologiyasi
9.	Tur evolyutsiyasining asosiy bosqichi	Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi
10.	Turning morfologik mezonini bilan tanishish	Laboratoriya mashquloti
11.	Evolutsiyaning sintetik nazariyasini bilan tanishtirish	An'anaviy ta'lim texnologiyasi

2-dars.

Dars mavzusi: Evolyutsion tushunchalarning paydo bo'lishi.

Darsning ta'limiy maqsadi: O'quvchilarni qadimgi mamlakatlardan Yunoniston, Rim, O'rta Osiyo olimlarining tabiatshunoslikning rivojlanishiga qo'shgan hissalari bilan tanishtirish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni evolyutsion tushunchalarning paydo bo'lishi tarixi bilan tanishtirish orqali ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, Vatandosh allomalarimizning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissalari bilan tanishtirish orqali milliy qururni tarkib toptirish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: O'quvchilarning biologik bilimlarini, darslik ustida mustaqil ishlash ko'nikmalari, nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirish.

Darsni jihozlash: Uluq allomalarining portretlari, kitoblari.

Darsda foydalilanildigan texnologiya: Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi

(«arra» metodi)

Asosiy tushunchalar va tayanch bilimlar:

Qadimgi Sharq mamlakatlari, Yunoniston va Rim, Markaziy Osiyo mamlakatlari tabiiyot fanlarining rivojlanishi, Markaziy Osyoning mashhur tabiiyotshunoslari A.R. Beruniy, A.A. ibn Sino va buyuk davlat arbobi Z.M. Bobur ishlari.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism

II. O'quvchilarni dars mavzusi, maqsadi, borishi bilan tanishtirish va ularning faoliyatini o'quv topshiriqlarini bajarishga yo'llash.

III. Yangi mavzuni o'rganish.

a) «mutaxassislar» guruhini tashkil etish hamda har bir guruh a'zolari tomonidan belgilangan o'quv topshiriqlarini sifatli bajarilishiga erishish.

IV. Dars mavzu mazmuni quyidagi 4 ta qismga ajratiladi:

1. Qadimgi Sharq mamlakatlari.

2. Qadimgi Yunoniston va Rim.

3. O'rta Osiyo.

4. O'rta Osyoning mashhur tabiiyotshunoslari Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va buyuk davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur ishlari.

Ushbu qismlar bo'yicha o'quvchilarning kichik guruhlari uchun quyidagi o'quv topshiriqlari tuziladi.

### 1-guruh uchun o'quv topshiriqlari

1	O'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan materiallar yuzasidan o'quv topshiriqlari	Topshiriqni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar
1.	Darslikdagi matnni diqqat bilan o'qib chiqib, quyidagi savollarga javob toping va topshiriqlarni bajaring: 1. Tabiat haqidagi dastlabki tushunchalar qaysi mamlakatlarda paydo bo'lgan? 2. Qadimgi Misorda qanday o'simliklar madaniyatlardan va hayvonlar xonaklashtirilganligini aniqlang. 3. Qadimgi Hindistonda paydo bo'lgan tabiat haqidagi qo'llanmalardagi fikrlarni o'rganing. 4. Xitoyda tabiat va uning tarkibiy qismlari haqidagi fikrlarini gapirib bering.	O'quvchilar guruhi bilan hamkorlikda ishlang. O'quvchilar bilan o'tkazildigan savol-javobda faol ishtirok eting.

### 2-guruh uchun o'quv topshiriqlari

1	O'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan materiallar yuzasidan o'quv topshiriqlari	Tops hiriqni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar
1.	Darslikdagi matnni diqqat bilan o'qib chiqib, quyidagi savollarga javob toping va topshiriqlarni bajaring:	O'quvchilar guruhi bilan hamkorlikda ishlang. O'quvchilar bilan o'tkaziladigan savol-javobda faol ishtirop eting.

### 3-guruh uchun o'quv topshiriqlari

1	O'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan materiallar yuzasidan o'quv topshiriqlari	Tops hiriqni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar
1.	Darslikdagi matnni diqqat bilan o'qib chiqib, quyidagi savollarga javob toping va topshiriqlarni bajaring:	O'quvchilar guruhi bilan hamkorlikda ishlang. O'quvchilar bilan o'tkaziladigan savol-javobda faol ishtirop eting.

### 4-guruh uchun o'quv topshiriqlari

1	O'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan materiallar yuzasidan o'quv topshiriqlari	Tops hiriqni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar
1.	Darslikdagi matnni diqqat bilan o'qib chiqib, quyidagi savollarga javob toping va topshiriqlarni bajaring:	O'quvchilar guruhi bilan hamkorlikda ishlang. O'quvchilar bilan o'tkaziladigan savol-javobda faol ishtirop eting.

b) «mutaxassislar uchrashuvi» guruhini tashkil etish va mazkur

guruhlarda «mutaxassis»lar yordamida o'quv materialining yaxlit holda qayta ishlab chiqilishini amalga oshirish.

V. Yangi mavzu yuzasidan o'quvchilar o'rtasida savol-javob, o'quv bahsi yusushtirish.

VI. O'quvchilar bilimini test savollari yordamida nazorat qilish va baholash.

VII. Yangi mavzuni qayta ishslash va yakunlash.

VIII. Uyga vazifa berish.

**«EVOLYUTSION TUSHUNCHALARING PAYDO BO'LISHI» MAVZUSIDAGI HAMKORLIKDA  
O'QITISH TEKNOLOGIYASINING «ARRA» METODIDAN FOYDALANILGAN DARSNING  
TEKNOLOGIK XARITASI**

TEKNOLOGIK BOSQIG'ALUSSA	O'QUVCHINING FOLIVATI	O'QUVCHINING FOLIVATI
I bosqich Tarkhilliy qism 5 danqqa	O'quvchilarni dars masevni, meqaddi, borishni bilan tanishitardit.	Dars masevni, meqaddi, borishni, unda bajarilibdig'an topshiringizni anglaydi.
II bosqich O'yan masevi yuzasidan bu etigan tart topshiringizni yordamida o'quvchilarning bilimberini nazorat qilish va baholash.	O'yan masevi yuzasidan bu etigan tart topshiringizni yordamida o'quvchilarning bilimberini nazorat qilish va baholaydi.	O'yan masevi yuzasidan bu etigan tart topshiringizni bajaradit.
III bosqich O'quvchilarning bilish foyliyatini turhil etish 5 danqqa	O'quv topshiringizning didaktik meqaddi, bajarilibdig'an o'quv topshiringizni bilan tanishitardit.	O'quv topshiringizning didaktik meqaddi, bajarilibdig'an o'quv topshiringizni yuzasidan ko'natishabimi anglaydi.
IV bosqich Yangi masevni o'rnatish. 5 danqqa	O'quvchilardan «mutasavvub» bo'sha boyorbaroq guruhlarini va shuning mustaqil tifsi tashkil etadi.	O'z o'quv foyliyatini turhil etadi. «Mutasavvub» guruhlari topshiringizni bajaradi.
V bosqich 5 danqqa	O'quv davrbundan o'tin olgan topshiringizni mustaqil o'chirishini boshlaysadi.	1-guruh. Qadimgi shing manbalalari. 2-guruh. Qadimgi Yaponiyadan va Rim 3-guruh. Orta Osiyo 4-guruh. Orta Osiyoning markaziy tibbiy hamkorlari J.R. Bawany, A.A. Ibn Sino va buyuk davlat arbobi I.M. Bobur lehlar.

Jadvalning davomi

TEXNOLOGIK BOSQICHLAR	O'QITUVCHINING FAOLIYATI	O'QUVCHINING FAOLIYATI
V bosqich O'quvchilar bilimini razorat qilish va beholash. 10 daqiga VI bosqich Erishilgan natijani tahlil qilish va yakun yasash. 5- daqiqo	«Mutaxassislar» uchrashuvi guruhini tashkil etadi. Har bir guruhda o'qiw materiali yaxlit holda ishlab chiqilishini amalga oshiradi. Tegishli hollarda yordam yushtiradi. O'rganilgan mavzu yuzasidan test topshiriqlari, savollar va didaktik jadvallar beradi. O'quvchilar faoliyatini va natijani tahlil qilish, o'quvchilarga mustaqil va ijodiy ish topshiriqlarini beradi.	«Mutaxassislar» uchrashuvi guruhida o'zi o'zlashtirgan qismni bayon etib guruhda o'qiw materiali yaxlit holda ishlab chiqilishida ishtirok etadi. Test topshiriqlarini bajaradi, savollarga javob topadi va didaktik jadvalarni to'ldiradi. O'z o'qiw faoliyati va erishilgan natijasini tahlil qildi va beholaydi. Mustaqil va ijodiy ish topshiriqlarini oladi.

### 3-dars

Dars mavzusi: Evolyutsion ta'lilotning tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-iqtisodiy asoslari.

Darsning ta'limiyligi maqsadi: O'quvchilarni evolyutsion ta'lilotning yaratilish paytidagi tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-iqtisodiy asoslari bilan tanishtirish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni evolyutsion ta'lilotning yaratilish paytidagi tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-iqtisodiy asoslari bilan tanishtirish orqali ilmiy dunyoqarashni kengaytirish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: O'quvchilarning biologik bilimlarini, darslik ustida mustaqil ishlash ko'nikmalari, nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirish.

Darsni jihozlash: K. Linney, J. Kyuve, J.B. Lamark portreti, «Bigl» kemasidagi safar xaritasi.

Darsda foydalaniladigan texnologiya: Didaktik o'yin texnologiyasi (konferensiya)

Asosiy tushunchalar va tayanch bilimlar: Sistematika fanining rivojlanishi, K. Linney va J. Kyuvening ishlari, J.B. Lamark ta'lomi.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism

II. O'quvchilarni dars mavzusi, maqsadi va borishi bilan tanishtirish.

O'qituvchi ushbu darsni o'tishdan bir hafta oldin o'quvchilarni 6ta guruhga ajratadi va ularni biologiya, sistematika fanlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan «olimlar» maqomini beradi.

III. Yangi mavzuni o'rganish: O'quvchilarning guruhi o'qituvchining tavsiyasiga binoan o'z mutaxassisliklariga tegishli bo'lgan quyidagi mavzulardan biri bo'yicha ma'ruba tayyorlaydi.

1. Sistematika fanining rivojlanishi.

2. K. Linney ishlari.
  3. J. Kyuvenering anatomiya va sistematika sohasidagi ishlari.
  4. J.B. Lamark ta'limoti.
  5. IX—X asrda Angliyaning ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti.
  6. Darvinnning tarjimai holi va «Bigl» kemasidagi safari.
- Har bir yo'nalish bo'yicha «olimlar» maqomini olgan o'quvchilar o'zlariga tegishli mavzu bo'yicha ko'rgazmali qurollar asosida qo'shimcha materiallardan foydalangan holda ma'ruza qiladilar. Ma'ruzalar tugagach, o'quvchilar o'rtasida o'quv bahsi va munozara o'tkaziladi.

Yangi mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilimini nazorat qilish va baholash darslikda berilgan savollar va test topshiriqlari orqali amalga oshiriladi.

#### «EVOLYUTSION TA'LIMOTNING TABIIY-ILMIY VA IJTIMOIY-IQTISODIY ASOSLARI»

#### MAVZUSIDAGI DIDAKTIK O'YIN TEXNOLOGIYASINING IJODIY O'YIN METODIDAN

#### FOYDALANILGAN DARSNING TEXNOLOGIK XARITASI

TEXNOLOGIK BOSQICHALAR	O'QUVCHILING EVOLVUTI	O'QUVCHILING EVOLVUTI
I bosqich Taymddy qizm 5 daqqaq	O'quvchilarni dars masevul, maqboldi, boshqa bilan tanishitadi.	Dars masevul, maqoldi, boshqa us unda bajarladicidan topshirishini ang beydi.
II bosqich O'quvchilarning bilan foydalyatni tashkil etadi. 5 daqqaq	O'quv topshirishiga dushmanlik maqoldi, bajarladicidan o'quv topshirishiga yuccadan ko'ra matnlarini ang beydi.	O'quv topshirishiga dushmanlik maqoldi, bajarladicidan o'quv topshirishiga yuccadan ko'ra matnlarini ang beydi.
III bosqich Yangi masevul o'rganishi. 60 daqqaq	O'quvda urinidan qurultashni va ubuning murtaqiylarini tashkil etadi.	O'quvda urinidan qurultashni tashkil etadi.
IV bosqich Erkinligan ro'rlari tashil qilish va yekun yozish. 10 daqqaq	O'quvda urinidan qurultashni tashkil etadi.	1-quruh. Sizxanotika fanning rivojishini.
	• Olinban uchrauhavi guruhini tashkil etadi. Har bir guruhda o'quv materialini yuccadan bayoribegan matnusalarini tayyebaydi.	2-quruh. K. Linney ishlari.
	• O'quvchilar foydalyatni tashil qiladi. O'quvchilarga murtaqiylarini yozdyi kabi topshirishini beradi.	3-quruh. J. Kyuvenering anatomiya va sistematika sohasidagi ishlari.
		4-quruh. A.B. Lamark ta'limoti.
		5-quruh. XIX-asrda Angliyaning ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti.
		6. Darvinnning tarjimai holi va «Bigr» kemasidagi safari.
		7. Olinban uchrauhavi guruhida tashkil etadi. Har bir guruhda o'quv materialini yuccadan matnusalarini tayyebaydi.
		8-quruh. Foydalyat va erkinligan ro'rlarini tashil qiladi va Esho beydi. Murozalig' va Ijodiylik topshirishini etadi.

Dars mavzusi: Darwin ta'limotining mohiyati.

Darsning ta'limiy maqsadi: O'quvchilarni Ch.Darvinnning yirik asarlari, ongsiz va ongli tanlash xillari, sun'iy tanlash natijasida qo'lga kiri-tilgan yutuqlar bilan tanishtirish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni Ch.Darvinnning yirik asarlari, ongsiz va ongli tanlash xillari, sun'iy tanlash natijasida qo'lga kiritilgan yutuqlar bilan tanishtirish orqali ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, iqtisodiy va mehnat tarbiyasи.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: O'quvchilarning hayvon zotlari va o'simlik navlari haqidagi bilimlari, darslik ustida mustaqil ishlash ko'nikmalari, nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirish.

Darsni jihozlash: Ch. Darwin portreti, sun'iy tanlash natijalari aks etgan jadvallar.

Darsda foydalaniladigan texnologiya: Modulli ta'lim texnologiyasi (o'quvchilarning kichik guruhlarda ishlashga mo'ljallangan modul dasturi).

Asosiy tushunchalar va tayanch bilimlar: Ch. Darvinnning yirik asarlari, Sun'iy tanlash xillari, ongsiz va ongli tanlash.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism

II. O'tgan mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimini test savol-topshiriqlari yordamida aniqlash va baholash.

III. O'quvchilarni dars mavzusi, maqsadi, borishi bilan tanishtirish va ularning faoliyatini o'quv topshiriqlarini bajarishga yo'llash.

IV. Yangi mavzuni o'rganish:

a) yangi mavzu bo'yicha tuzilgan modul dasturini tarqatish va o'quvchilarni modul dasturining didaktik maqsadi bilan tanishtirish;

b) o'quvchilarning faoliyatini modul dasturidagi o'quv topshiriqlarini mustaqil bajarishga yo'llash;

Mavzu matni mantiqan modullarga ajratiladi:

1. Darwinning yirik asarlari.

2. Sun'iy tanlash va uning shakllari.

3. Ongsiz tanlash.

4. Ongli tanlash.

Shu modullarni o'quvchilar mustaqil o'zlashtirishlari uchun quyidagi modul dasturi tuziladi.

«Darvin ta'limotining mohiyati» mavzusi yuzasidan o'quvchilarning kichik guruhlarda ishlashiga mo'ljallangan modul dasturi.

Modul dasturining didaktik maqsadi: Siz modul dasturi yordamida mustaqil ishlab Ch. Darvinnning yirik asarlarining qisqacha mazmuni va mohiyati, sun'iy tanlash va uning ongsiz va ongli tanlash shakllari natijalari bilan tanishishingiz, darslik ustida mustaqil ishlash ko'nikmalaringiz, nutq

va muloqot madaniyatingizni rivojlantirishingiz zarur.

O'quv faziliyat elementi	O'quvchilar o'cherishni kelin bo'lgan o'quv materialiga oldi topshiringiz	Topekhingizni bo'yicha ko'maklar
1-ORE	Davridagi matematikni diqqat bilan o'qib, quyidagi ravollarga javob toping va topekhingizni bo'jaring: Maqso'at Davrining yurik surʼatini o'rganish. 1. Davrin chunyu vaqtidan vorigi nimalar bilan shuqallanganligini aniqlang. 2. Turinning paydo bo'libchi surʼat qachon roʼshti shilgan? Unding surʼidy menunini gapib berling. 3. Davrining yuregan yurik surʼatini nimalardan saqlang.	O'quvchilar gunchi bilan hamkorlikda iktibang.  O'quvchilar jami yetib bilan o'sebiladi ga ravollajavobda foyli iktirof eting.
2-ORE	Maqso'at Suntiytanberh mohiyatini o'rganish. Davridagi matematikni diqqat bilan o'qib, quyidagi ravollarga javob toping va topekhingizni bo'jaring: 1. Turin turqun surʼatligini qayd foydali bilan o'saydit. 2. Davrining jarayon meccanizmini aniqlab hola. Davrin nimalariga surʼat surʼidi? 3. Suntiy tanberh o'dbarini aniqlang.	
3-ORE	Maqso'at Ong'li tanberh mohiyatini o'rganish. Davridagi matematikni diqqat bilan o'qib, quyidagi ravollarga javob toping va topekhingizni bo'jaring: 1. O'sindidamni modaniyaltinch va hayvonlari qo'liga ving'ishli qachon berilganini. 2. Ong'li tanberh mohiyatini turhantiring. 3. Ch. Davrin o'sindil yurdeg'i qanday tanberh iktisadining gunchi bo'lganini. 4. Ong'li tanberh nafziga da nimalar keltirib chiqarilgani qilni aniqlang.	
4-ORE	Maqso'at Ong'li tanberh mohiyatini o'rganish. Davridagi matematikni diqqat bilan o'qib, quyidagi ravollarga javob toping va topekhingizni bo'jaring: 1. Ong'li turhantiring ong'li tanberhidan farg'li aniqlang. 2. Ong'li nafzini keltirib chiqarishda sun'tiy tanberh qaydi yordahlihonda o'sib bo'lganini. 3. Sun'tiy tanberhning tanberh anterovchi lochini aniqlang. 4. D.K. Belyayevning sun'tiy tanberh o'sha surʼagi iktisadining. 5. Davrining Afroscha sun'tiy tanberhning maxfiy qaydiyligi qanday surʼayi onllarga bog'ligini aniqlang.	

Jadvalning davomi

O'quv faoliyati elementi	O'quvchilar o'zlashtirishi lazim bo'lgan o'quv materialiga oid topshiriqlar	Topshiriqlarni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar
S- O'FE	<p>Modulni yakunlash.</p> <p>Modul dasturining didaktik maqsadini o'qib chiqing.</p> <p>Siz unga qay darajada erishdingiz?</p> <p>O'zingizning o'quv faoliyatizingizni besh balli tizimida baholang.</p> <p>O'quv faoliyatizingizdan qoniqish hosil qilgan bo'shangiz sun'iy tankashga oid atamalar, o'simlik navlari va hayvon zotlari nomlaridan foydalanib crossword tutning.</p> <p>Agar o'z o'quv faoliyatizingizdan erishilgan natija sizni qanoatlantrimascha, modul dasturi yordamida mavzuni qayta o'rganing.</p>	

d) har bir o'quv faoliyati elementi topshiriqlarining to'liq bajarilishini nazorat qilish, tegishli ko'rsatmalar berish;

e) har bir o'quv faoliyati elementi yakunida savol-javob yoki munozara o'tkazish.

V. Yangi mavzu yuzasidan test savollari yordamida o'quvchilar bilimini aniqlash.

VI. Uyga vazifa berish.

VII. Darsni umumiy yakunlash.

#### «DARVIN TA'LIMOTINING MOHIYATI» MAVZUSIDAGI MODULLI DARSNING TEKNOLOGIK XARITASI

TEKNOLOGIK BOSQICHHLAR	O'RQMUZHINING FAOLIVATI	O'QUVCHINING FAOLIVATI
I bosqich Tarkibliy qism 5 daqiqqa	O'quvchilardan dars masevul, maqsadli, boshchi bilan tanishishini.	Dars masevul, maqsadli, boshchi va unda bajariladigan topshiriqlarni anqlaydi.
II bosqich O'rgan masevu yuzasidan o'quvchilarning bilimini nazorat qilish va baholash. 10 daqiqqa	O'rgan masevu yuzasidan turilgan test topshiriqlarini yordamida o'quvchilarning bilimini nazorat qiladi va baholaydi.	O'rgan masevu yuzasidan turilgan test topshiriqlarini bajaradi.
III bosqich O'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish. 3 daqiqqa	Modul dasturining didaktik maqsadli, modular, modularning soni surʼi didaktik maqsadlarini, bajariladigan o'quv topshiriqlari bilan tanishishadi.	Modul dasturining didaktik maqsadli, modular, modularning soni surʼi didaktik maqsadlarini, bajariladigan o'quv topshiriqlari yuzasidan ko'mak malumati anqlaydi.

Jadvalning davomi

TEXNOLOGIK BOSQICHLAR	O'QITUVCHINING FAOLIYATI	O'QUVCHINING FAOLIYATI
I bosqich Yangi mavzuni o'rGANISH. 45 daqiga	O'quvchilarning yakka tartibda, juftlikda yoki kichik guruhlarda mustaqil ishini tashkil etadi Modul dasturidan o'rinn olgan har bir modul topshiriqlarini mustaqil o'zlashtirishini taminlaydi. Har bir modul yakunida o'quvchilar bilan sayoh-javob o'quv balsi o'tkazadi Tegishli hollarda yordam uyuştiradi Modul dasturini yakunlaydi Kichik guruhlar faoliyatini baholaydi	O'z o'quv faoliyatini tashkil etadi 1-modul Danvining yirik asarları 2-modul Sun'iy tanlash 3-modul Ongsiz tanlash 4-modul Ongli tanlash  Modul dasturining didaktik maqsadiga erishganlik darajasini aniqlaydi va o'z-o'zinini baholaydi.
V bosqich O'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash. 10 daqiga	Organilgan mavzu yuzasidan test topshiriqlari, savollar va didaktik jadvallar beradi.	Test topshiriqlari, savollar va didaktik jadvallarni bajaradi
VI bosqich Erishigan natijani tahlil qilish va yakun yesash. 5 daqiga	O'quvchilar faoliyatini va natijani tahlil qilish, ularga mustaqil va ijodiy ish topshiriqlarini beradi.	O'z o'quv faoliyati va erishgan natijani tahlil qiladi va baholaydi, shunga ko'ra mustaqil va ijodiy ish topshiriqlarini oladi

## 5-dars

Ekskursiya mavzusi: Sun'iy tanlash (Chorvachilik yoki parrandachilik fermer xo'jaliklariga ekskursiya).

Ekskursiyaning maqsadi: O'quvchilarning sun'iy tanlash va uning xillari haqidagi bilimlari, kuzatish ko'nikmalarini rivojlantirish, sun'iy tanlash tufayli keltirib chiqarilgan zotlar, ulardagi xo'jalik belgilari bilan tanishtirish, kasbga yo'llash, ekologik va iqtisodiy tarbiya berish.

Jihozlar: daftar, ruchka, chizqich, fotoapparat.

Ekskursiyaning borishi:

I. O'quvchilarni ekskursiyaning maqsadi, borishi, kuzatiladigan va bajariladigan topshiriqlar bilan tanishtirish.

II. O'quvchilarni kichik guruhlarga ajratish va ularga o'quv topshiriqlarini taviya etish.

III. O'quvchilarning kichik guruhlarda mustaqil ishini tashkil etish.

I-guruh topshiriqlari.

1. Jamoa fermer xo'jaligida boqilayotgan qoramol zotlarini o'rganing.
2. Qoramollarga bir kecha-kunduzda beriladigan ozuqa xillari va ularning miqdorini o'rganing.
3. Qoramol naslini yaxshilash uchun qanday ishlar olib borilayotganligini bilib oling.
4. Qoramol zotlarining kelib chiqish tarixi shajara daftarini o'rganing.
5. Kuzatganlaringiz asosida quyidagi jadvalni to'ldiring.

Qoramol zotları	Mahalliy sharoitda chiqarilgan yoki chetdan olib kelinan	Tirik vazni	G'osht miqdori	Sut miqdori	Iqtisodiy foyda

### II-guruh topshiriqlari.

1. Jamoa fermer xo'jaligida boqilayotgan qo'y zotlarini o'rganing.
2. Qo'ylargacha bir kecha-kunduzda beriladigan ozuqa xillari va ularning miqdorini o'rganing.
3. Qo'y naslini yaxshilash uchun qanday ishlar olib borilayotganligini bilib oling.
4. Qo'y zotlarining kelib chiqish shajara tarixi daftarini o'rganing.
5. Kuzatganlaringiz asosida quyidagi jadvalni to'ldiring.

Qo'y zotları	Mahalliy sharoitda chiqarilgan yoki chetdan olib kelinan	Tirik vazni	G'osht miqdori	Jun miqdori	Iqtisodiy foyda

### III-guruh topshiriqlari.

1. Jamoa fermer xo'jaligida boqilayotgan parranda zotlarini o'rganing.
2. Parrandalarga bir kecha-kunduzda beriladigan ozuqa xillari va ularning miqdorini o'rganing.
3. Parranda naslini yaxshilash uchun qanday ishlar olib borilayotganligini bilib oling.
4. Parranda zotlarining kelib chiqish shajara daftarini o'rganing.
5. Kuzatganlaringiz asosida quyidagi jadvalni to'ldiring.

Parranda zotları	Mahalliy sharoitda chiqarilgan yoki chetdan olib kelinan	Tirik vazni	G'osht miqdori	Tuxum miqdori	Iqtisodiy foyda

IV. Kichik guruhlarning topshiriqlar yuzasidan axborotini tinglash.

V. Ekskursiya mobaynida tanishilgan zotlar va ularning o'ziga xos belgilari, boqish, naslini yaxshilashga oid ma'lumotlar bo'yicha hisobot tayyorlash.

VI. Ekskursiyani yakunlash.

VII. O'quvchilarga ekskursiyaga bag'ishlangan fotoalbom yoki devoriy gazeta tayyorlash haqida topshiriq berish.

## 6-dars

Darsning mavzusi: Yashash uchun kurash va tabiiy tanlanish.

Darsning ta'limiy maqsadi: O'quvchilarni tabiiy sharoitda uchraydigan o'simlik va hayvonlardagi shaxsiy o'zgaruvchanlik, organizmlarning ko'payish tezligi, ular o'rtaida boradigan yashash uchun kurash xillari, tabiiy tanlanish shakllari bilan tanishtirish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni o'simlik va hayvonlardagi shaxsiy o'zgaruvchanlik, organizmlarning qo'payish tezligi, organizmlar o'rtaida boradigan yashash uchun kurash xillari, tabiiy tanlanish orqali ilmiy dunyo-qarashini kengaytirish, ekologik tarbiya berish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: O'quvchilarning tirik organizmlar o'rtaida munosabatlari haqidagi bilimlaridan foydalanish, darslik ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Darsni jihozlash: Tabiiy sharoitda o'sadigan o'simliklar va yashaydigan hayvonlardagi shaxsiy o'zgaruvchanlik, yashash uchun kurash xillari, tabiiy tanlanish shakllari aks etgan jadvallar.

Darsda foydalilaniladigan texnologiya: An'anaviy ta'lim va modulli ta'lim texnologiyalari uyqunlashtiriladi.

Asosiy tushunchalar va tayanch bilimlar:

O'simlik va hayvonlardagi o'zgaruvchanlik turlari, organizmlarning ko'payish tezligi, yashash uchun kurash xillari, tabiiy tanlanish shakllari: harakatlantiruvchi tanlanish, stabillashtiruvchi tanlanish, disruptiv tanlanish.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism

II. O'tgan mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimini test savol-topshiriqlari yordamida aniqlash va baholash.

III. O'quvchilarni dars mavzusi, maqsadi, borishi bilan tanishtirish va ularning faoliyatini o'quv topshiriqlarini bajarishga yo'llash.

IV. Yangi mavzuni o'rganish:

Reja:

1. Tabiiy sharoitdagi o'simlik va hayvonlardagi shaxsiy o'zgaruvchanlik.

2. Organizmlarning ko'payish tezligi.
3. Yashash uchun kurash xillari.
  - a) har xil turga mansub organizmlar o'rtasida kurash;
  - b) bir turga mansub organizmlar o'rtasidagi kurash;
  - c) organizmlarning anorganik tabiatning noqulay sharoitiga qarshi kurashi;
  - d) organizmlar orasidagi munosabatlarda odamning foydalanishi.
4. Tabiiy tanlanish shakllari.
  - a) harakatlantiruvchi tanlanish;
  - b) stabillashtiruvchi tanlanish;
  - c) dizruptiv tanlanish.

Rejadan o'rın olgan tabiiy sharoitdagи o'simlik va hayvonlardagi shaxsiy o'zgaruvchanligi, organizmlarning ko'payish tezligini o'qituvchi suhbat va ma'ruza metodlaridan foydalangan holda bayon etadi.

Yashash uchun kurash xillari, har xil turga, bir turga mansub organizmlar o'rtasidagi kurash, organizmlarning anorganik tabiatning noqulay sharoitiga qarshi kurashi va bu munosabatdan odamning foydalanishi masalalari modulli ta'lif texnologiyasidan foydalilanigan holda o'rganiladi.

Tabiiy tanlanish shakllari, harakatlantiruvchi tanlanish, stabillashtiruvchi tanlanish, dizruptiv tanlanishni o'rganishda ma'ruza metodidan foydalilanildi.

O'qituvchi ko'rgazmali vositalar, jadvallar yordamida o'simliklar va hayvonlardagi shaxsiy o'zgaruvchanlik, organizmlarning ko'payish tezligini tushuntirgandan so'ng modul dasturi asosida o'quvchilarining mustaqil ishlarini tashkil etadi.

O'quvchilarining «Yashash uchun kurash» mavzusini o'zlashtirishlari uchun tuzilgan modul dasturi.

Modul dasturining didaktik maqsadi: Siz kichik guruhlarda o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlab yashash uchun kurash xillari, organizmlar orasidagi munosabatlardan odamning foydalanishi bilan tanishishingiz, darslik ustida mustaqil ishslash, nutq va muloqot madaniyatizingizni rivojlantirishingiz zarur.

OTC	Oqquşular və hədəfli həcmi bəlgən cəvər materialına aid topshırıqlar	Topshırıqlardan bəzən həcmi bəzən materialdan	Bəzən
1-OFE	<p>Dəvlikdən məməni düşətib bilən cığlıdır, qayadən rəsədlərə şəxsi toping və topshırıqları bəzəyir.</p> <p>Məşəqdə bir əl turşusuna məmənə və organlərdən cırtdığı hər hansı vəziyyət.</p> <p>Dəvlikdən məməni düşətib bilən cığlıdır. Cığlıdır rəsədlərə şəxsi toping və topshırıqları bəzəyir.</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Bir əl turşusuna məmənə və organlərdən cırtdığı hər hansı vəziyyət.</li> <li>2. Vürtəqin və təzyiqli həyvənlərin cırtdılmasına bəzədən hər hansı vəziyyət.</li> <li>3. Cırtdılık bilən cırtdılık cırtdılmasına bəzədən hər hansı vəziyyət.</li> <li>4. Əflən maynəti, chumchugur cırtdılık cəvərəyən rəsədən və füdələyən hər hansı vəziyyət.</li> <li>5. 13-nəndən bərkənən turşusuna hər hansı vəziyyət.</li> </ol> <p>Məşəqdə bir turşusuna məmənə və organlərdən cırtdığı hər hansı vəziyyət.</p> <p>Dəvlikdən məməni düşətib bilən cığlıdır. Cığlıdır rəsədlərə şəxsi toping və topshırıqları bəzəyir.</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Bir turşusuna məmənə və organlərdən cırtdığı hər hansı turşusuna hər hansı vəziyyət.</li> <li>2. Qırğız və cırtdılmasına bəzədən hər hansı lesh turşusuna.</li> <li>3. Dəstəkəcək həyvənlərdən bəzədən hər hansı turşusuna.</li> <li>4. Gələcə, bug day, dərəct və butabarda vətən raylıqları turşusuna hər hansı vəziyyət.</li> <li>5. Dəvlikdən bərkənən 14,15-nəndən lesh turşusuna.</li> </ol> <p>Məşəqdə organlərləmənən anorganik tabletning nə-qubə rəsədlərə qəzdi hər hansı vəziyyət.</p> <p>Dəvlikdən məməni düşətib bilən cığlıdır. Cığlıdır rəsədlərə şəxsi toping və topshırıqları bəzəyir.</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Nə-organik tablet emilləri türk organlərə qədər vətən raylıqları.</li> <li>2. Qırğız və cırtdılmasına bəzədən hər hansı tabletning tətbiq etməsi.</li> <li>3. Hərəkətindən yarın hərəkət türk organlərə qədər vətən raylıqları.</li> </ol>	<p>Oqquşular jəməvar bilən həmkərlikdən lesh turşusuna.</p> <p>Kichik qırğız və cırtdılmasına bəzədən hər hansı rəsədən vətən raylıqları.</p>	
2-OFE	<p>Məşəqdə bir turşusuna məmənə və organlərdən cırtdığı hər hansı vəziyyət.</p> <p>Dəvlikdən məməni düşətib bilən cığlıdır. Cığlıdır rəsədlərə şəxsi toping və topshırıqları bəzəyir.</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Bir turşusuna məmənə və organlərdən cırtdığı hər hansı turşusuna hər hansı vəziyyət.</li> <li>2. Qırğız və cırtdılmasına bəzədən hər hansı lesh turşusuna.</li> <li>3. Dəstəkəcək həyvənlərdən bəzədən hər hansı turşusuna.</li> <li>4. Gələcə, bug day, dərəct və butabarda vətən raylıqları turşusuna hər hansı vəziyyət.</li> <li>5. Dəvlikdən bərkənən 14,15-nəndən lesh turşusuna.</li> </ol> <p>Məşəqdə organlərləmənən anorganik tabletning nə-qubə rəsədlərə qəzdi hər hansı vəziyyət.</p> <p>Dəvlikdən məməni düşətib bilən cığlıdır. Cığlıdır rəsədlərə şəxsi toping və topshırıqları bəzəyir.</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Nə-organik tablet emilləri türk organlərə qədər vətən raylıqları.</li> <li>2. Qırğız və cırtdılmasına bəzədən hər hansı tabletning tətbiq etməsi.</li> <li>3. Hərəkətindən yarın hərəkət türk organlərə qədər vətən raylıqları.</li> </ol>	<p>Oqquşular jəməvar bilən həmkərlikdən lesh turşusuna.</p> <p>Kichik qırğız və cırtdılmasına bəzədən hər hansı rəsədən vətən raylıqları.</p>	
3-OFE	<p>Məşəqdə organlərləmənən anorganik tabletning nə-qubə rəsədlərə qəzdi hər hansı vəziyyət.</p> <p>Dəvlikdən məməni düşətib bilən cığlıdır. Cığlıdır rəsədlərə şəxsi toping və topshırıqları bəzəyir.</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Nə-organik tablet emilləri türk organlərə qədər vətən raylıqları.</li> <li>2. Qırğız və cırtdılmasına bəzədən hər hansı tabletning tətbiq etməsi.</li> <li>3. Hərəkətindən yarın hərəkət türk organlərə qədər vətən raylıqları.</li> </ol>	<p>Oqquşular jəməvar bilən həmkərlikdən lesh turşusuna.</p> <p>Kichik qırğız və cırtdılmasına bəzədən hər hansı rəsədən vətən raylıqları.</p>	

O'FE	O'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan o'quv materialiga oid topshiriqlar	Topshiriqlarni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar	Baho
